

## YANGI O'ZBEKISTON

Ijtimoiy-siyosiy gazeta

№ 6 (1067), 2024-yil 10-yanvar, chorshanba



www.yuz.uz



yuz.uznews



yuz\_official



yuz.uz\_news



yuz

SAVDO VA XIZMAT KO'RSATISH,  
MADANIYAT SOHALARIDAGI  
LOYIHALAR TAQDIMOT QILINDI

Prezident Shavkat Mirziyoyev 9-yanvar kuni savdo va xizmatlarni rivojlantirish, turizm va madaniyat maskanlarini barpo etishga oid taqdimot bilan tanishdi.

Bu haqda o'tgan yili 18-dekabrda bo'lgan videoselektor yig'ilishida topshiriqlar berilgan edi. Xususan, mamlakatimizda turizm sahohiyati katta ekani, uni samarali ishga solib, sayyohlik maskanlari va mehmon o'rinlarini ko'paytirish lozimligi ta'kidlangandi.

Taqdimotda shunga muvofiq tayyorlangan loyihalar ko'rib chiqildi.

Qashqadaryo viloyatining Shahrisabz, Toshkent viloyatining Parkent tumani tog'lari juda xushmanzara. Ayniqsa, bahor-yoz mavsumida sayyohlar bilan gavjum. Bu boradagi sharoitlarni kengaytirish maqsadida Shahrisabzdagi Miraki, Parkentning Nurobod va Kumushkon hududlarida zamonaviy dam olish maskanlarini barpo etish ko'zda tutilgan.

Shuningdek, Qashqadaryodagi Maydanak tog' maskanida yengil konstruksiyali xostellar qurish, mavjud binolarni savdo va xizmatlarga qayta ixtisoslashtirish, hududni obodonlashtirish mo'ljallangan.

Turistlar boradigan joylardan biri bu — bozor. Lekin bugungi kunda ayrim bozorlarimiz turistlar uchun jozibador emas, ularda milliy kolorit yetishmaydi.

Shu bois, davlatimiz rahbari milliy madaniyatimizni aks ettirgan bozor majmualari loyihasini ishlab chiqish vazifasini qo'ygan edi. Taqdimotda tarixiy shaharlarimizdagi bozorlarni turistlar uchun jozibador maskanlarga aylantirish bo'yicha dastlabki loyihalar namoyish qilindi.

— Bozorlarimizning o'ziga xos jihatlarini saqlab qolgan holda ularni yurtimizning "tashrif qog'ozi"ga aylantirish kerak. Oziq-ovqat, kiyim-kechak, zargarlik do'konlari, oshxonalar, ko'ngilochar maskanlar hamohang bo'lishi, xaridorlar va turistlarni o'ziga jalb qilishi zarur, — dedi Shavkat Mirziyoyev.

Bu borada Turkiya va arab mamlakatlari tajribasini o'rganish, loyihalashtirishga xorijiy mutaxassislarni taklif etish muhimligi aytib o'tildi.

Taqdimotda Toshkent, Samarqand, Buxoro va Xiva kabi turizm markazlarida qurilishi rejalashtirilayotgan bozorlar haqida ham axborot berildi. Davlatimiz rahbari ularda ham hududiy koloritni aks ettirish, turistlar uchun kengroq sharoit yaratish bo'yicha ko'rsatmalar berdi.

Prezidentimiz Respublika Ma'naviyat va ma'rifat kengashining majlisida Toshkent davlat sirk faoliyatini yaxshilash masalasiga to'xtalib o'tgan edi. Bugungi taqdimotda ushbu madaniyat dargohini ta'mirlash, soha uchun kadrlar tayyorlashda ta'lim va amaliyotni uyg'unlashtirish maqsadida 300 o'rinli o'quv binosini barpo etish rejalari muhokama qilindi.

Davlatimiz rahbari loyihalarni takomillashtirish va sifatli qurish yuzasidan qo'shimcha ko'rsatmalar berdi.

O'ZA

KOMILLIK YO'LINING  
MANZILI QAYDA?

Jamiyatimiz taraqqiyotining bugungi vazifa va yo'nalishlaridan kelib chiqqan holda, to'liq asos bilan ta'kidlash lozim: xalqimizning "Milliy tiklanishdan — milliy yuksalish sari" g'oyasini chuqur va mustahkam qaror toptirish davrimizning eng dolzarb va yuksak yumushiga aylandi. Milliy g'oyani xalqimiz ongi va tafakkuriga singdirish biz uchun hayot-mamot masalasidir.

Hozirgi ko'p qutbli dunyo qiyinchilik bilan shakllanayotgan bir paytda g'oyalar rolining oshib borayotgani guvohi bo'lyapmiz. Sayyoramizda yangicha xalqaro tartibot shakllanayotgan ayni pallada jahondagi kuchlar muvozanati turli markazlar o'rtasida ziddiyatli hal qilinayotir. Shu bilan birga, mafkura omiliga talab va ehtiyoj tobora ortib bormoqda. G'oyaviylashuv tendensiyasi kuchayib borayotgan bugungi murakkab zamonda

## Yangi O'zbekiston orzusi

MAQSADIMIZ ham,  
YO'LIMIZ ham ANIQMAS'ULIYAT VA DAXLDORLIK TUYG'USI  
KO'ZLAGAN MARRAMIZGA YETKAZADI  
(Ikkinchi maqola)

har bir mustaqil mamlakatning jahon siyosiy va iqtisodiy makonida munosib o'rini mustahkam egallagan holda, o'z ke-lajagiga ishonch bilan qaray olishi uchun jamiyat a'zolarining g'oyaviy e'tiqodi

masalasini to'g'ri hal qilish lozim. Insoniyatning tarixiy tajribasiga murojaat qilsak, masalaning nechog'liq muhimligiga amin bo'lamiz. Ko'pgina mamlakatlarning tanazzulga yuz tutishiga jamiyatda mav-

jud bo'lgan g'oyaviy parokandalik sabab bo'lgan. G'oyaviy parokandalik jamiyatni boshboshdoqlikka olib kelgan. Jamiyat o'zining aniq muaddasini anglab yeta olmagan va natijada halokatlilik, tahdidli holatga tushib qolgan. Davlatimiz rahbarining "O'zimizga bir savol berib ko'raylik: biz bugungi keskin sharoitda g'oyaviy-mafkuraviy sohada raqobatga tayyormizmi? Yosh avlodimiz tarbiyasi murakkab zamon talablariga javob beryaptimi? Mana, bugun ma'naviy-ma'rifiy sohada masala qanday o'tkir va ko'ndalang bo'lib turibdi. Bular oddiy savollar emas. Odamni jiddiy o'ylantiradigan, tashvishga soladigan savollar. Agar biz bu yorug' dunyoda "o'zbek", "O'zbekiston" degan nomlar bilan yashab qolishni istaydigan bo'lsak, bu savollarga bugun javob topishimiz va ularni hal etish bo'yicha amaliy harakatlarni aynan bugun boshlashimiz shart. Ertaga kech bo'ladi", degan fikrlaridan tegishli xulosa chiqarishimiz kerak.

Davomi 3-betda

## 2024-yil — Yoshlar va biznesni qo'llab-quvvatlash yili

PARVOZ BOSHLANDI  
Bir qanotda yoshlar, boshqasida tadbirkorlar

2023-yil jahon maydonida ham, yurtimiz hayotida ham qizg'in kechdi. O'tgan yil chindan ham olamshumul voqealar, katta yutuqlar, barcha sohalarda rivojlanishlarga boy bo'ldi. Tariximizda ilk bor xalqimiz referendum yo'li bilan yangilangan Konstitutsiyamizni qabul qildi. Mamlakatimiz bir qancha nufuzli tadbirlarga mezbonlik qilib, jahon hamjamiyati e'tiborida bo'ldi. Eng asosiysi, yana bir yilni tinchlik-xotirjamlikda kuzatdik va yangi 2024-yilni kutib oldik.



An'anaga muvofiq, joriy yilni ham unga nom berish bilan boshladik. 2024-yil mamlakatimizda "Yoshlar va biznesni qo'llab-quvvatlash yili", deb e'lon qilindi. Demak, bu yilda ham yurtimiz aholisining 60

foizdan ko'prog'ini tashkil etadigan yoshlar hamda mamlakatimiz iqtisodiyotining chin ma'nodagi lokomotiviga aylangan biznes sohasi yanada qo'llab-quvvatlanadi. Mana shu maqsad atrofida barcha vazifalar birlashib,

yurtdoshlarimiz hayotini yaxshilashga qaratilgan islohotlar faol davom etadi. Prezidentimiz xalqimizga yo'llagan bayram tabrigida ta'kidlanganidek, joriy yilda iqtisodiyotimizga xorijiy investitsiyalarni jalb etish, tadbirkorlik va xususiy mulk uchun keng imkoniyatlar yaratishni yanada kuchaytirish, ilm-fan, innovatsiya, IT kabi sohalarni, "yashil" va raqamli texnologiyalarni rivojlantirishga alohida e'tibor qaratiladi. Ijtimoiy sohalar rivoji mutlaqo yangi bosqichga ko'tariladi.

## Eng birinchi kundan...

"Biznes" so'zi inglizcha ish, mashg'ulot, korxonalar, degan ma'nolarni anglatadi. Shunga ko'ra, biznesni qo'llab-quvvatlash, deganda bandlikni, mashg'ullikni, iqtisodiyotning har bir tarmog'idagi rivojlanish, o'sish omillari, erkin bozor iqtisodiyoti va bularning ortidan aholi farovonligini oshirishni tushunish mumkin. Chunki hududlarda biznes qanchalik rivojlanib, tadbirkorlar soni ortsa, aholi bandligi va turmush farovonligi oshib, iqtisodiy o'sish shuncha yuqorilaydi.

Davomi 4-betda

## Ilm-fan taraqqiyoti

O'ZBEK OLIMLARI  
KORONAVIRUSGA QARSHI  
YANGI VAKSINA YARATDI

Koronavirus pandemiyasi avj olgan dastlabki paytlardanoq dunyoning yetakchi olimlari kasallikka qarshi vaktsina yaratish ustida ish boshladi. Mamlakatimizda ham tojkor virusga qarshi samarali vaktsina yaratish borasida izlanishlar olib borildi.

O'zbekiston Fanlar akademiyasi huzuridagi Genomika va bioinformatika markazida inson organizmida virusga qarshi immunoglobulinlarni hosil qiladigan oqsilni o'simliklardan olish, ya'ni iste'mol qilinadigan vaktsina yaratish g'oyasi ilgari surildi. Markaz olimlari buning uchun pomidor sabzavotini tanladi. O'tgan vaqt mobaynida

olib borilgan tadqiqotlar natijasida iste'mol uchun mo'ljallangan Tomavac pomidor vaktsinasi yaratildi. Ta'kidlanishicha, emlama sichqon va odam qon zarardoblarini COVID-19ga qarshi zararlantiruvchi immunoglobulinlar bilan ta'minlaydi.

Davomi 5-betda

## Bugunning gapi

O'ZINI O'ZI BAND QILGANLAR  
QAY TARTIBDA  
SOLIQ TO'LAYDI?

Joriy yil mamlakatimiz soliq sohasida ham bir qator yangiliklar bilan boshlandi. O'tgan yil 28-dekabrda qabul qilingan "Soliq va budjet siyosatining 2024-yilga mo'ljallangan asosiy yo'nalishlari qabul qilinganligi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi qonun asosida Soliq kodeksining 369-moddasiga kiritilgan o'zgartirish va qo'shimchalarga muvofiq, o'zini o'zi band qilgan shaxslar uchun quyidagicha soliq majburiyati belgilandi.

Davomi 2-betda

## 14-YANVAR — VATAN HIMYOACHILARI KUNI

HARBIY-VATANPARVARLIK TARBIIYASI —  
HAR QANDAY DAVLAT SIYOSATINING ASOSI

Ma'naviy fazilatlar orasida harbiy-vatanparvarlik muhim o'ringa ega. U, avvalo, insonning Vatani oldidagi burchini his etishi, yurt manfaatlarini himoya qilishda fidoyiligini anglatadi.

Harbiy-vatanparvarlik tarbiyasining nazariyasi va amaliyotini o'zlashtirish, yoshlarni harbiy xizmatga, o'z Vatani himoya qilishdagi burchlarini bajarishga har tomonlama ko'maklashish harbiy o'quv yurtlari pedagogik jamoalarining muhim vazifalardan biridir.

O'quvchi-yoshlarni Qurolli Kuchlar xizmatiga axloqiy-siyosiy, psixologik, harbiy-texnik va jismoniy tayyorlash harbiy ta'limning mazmuni, shakl va uslublari hisoblanadi.

Davomi 2-betda







## 14-yanvar — Vatan himoyachilari kuni

## HARBIY-VATANPARVARLIK TARBIIYASI — HAR QANDAY DAVLAT SIYOSATINING ASOSI

Shuhrat HOTAMOV, *Jamoat xavfsizligi universiteti dotsenti, Polkovnik*

## Boshlanishi 1-betda

Prezidentimiz raisligida 2-yanvar kuni mudofaa qurilishi va O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarini rivojlantirish masalalariga bag'ishlangan yig'ilishda ham yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalashga alohida e'tibor qaratildi.

Biz, avvalo, yoshlarimiz ongiga Vatan degan oliy tuyg'u mohiyatini singdirishimiz zarur. Zero, Vatan — bu ming yillar mobaynida sayqallanib, kishilar ruhiga

ilhom beruvchi, mard o'g'lonlarni jasoratga, kerak bo'lsa ona zamin uchun borini berishga undovchi muqaddas tuyg'u. Milliy g'urur, milliy iftixor har qanday ishimizning poydevori bo'lmog'i kerak.

Bu muqaddas g'oyalari millati va e'tiqodidan qat'i nazar, shu yurtda, shu zaminda yashayotgan har bir inson, har bir fuqaroning hayotiga, ongiga singmog'i, har birimiz uchun eng katta tayanch, ishonch, boringki, haqiqiy iymon ishiga aylanishi kerak.

Bugungi eng buyuk vazifamiz va muqaddas burchimiz yangi O'zbekiston tarixidan o'zimizga munosib sahifa ochish va uni avlodlarimiz uchun ibrat bo'ladigan olijanob va savobli ishlar bilan to'ldirishdir.

Mana shu buyuk maqsadlardan kelib chiqqan holda biz ham o'z oldimizga asosiy vazifalarni belgilab olishimiz kerak. Harbiy yo'nalishdagi o'qituvchilarning asosiy vazifasi — Vatanni jon-jonidan sevuvchi, uning ravnaqi va ozodligi uchun elim, yurtim deb yonib yashaydigan mard o'g'lonlar, o'zbek vatanparvarlarini tarbiyalab, voyaga yetkazishdir. Bu tarbiya, albatta, axloqiy, mehnat, estetik, siyosiy hamda jismoniy turlar bilan uzviy bog'liqlikda olib borilishi kerak.

Tarbiya turlari orasida harbiy-vatanparvarlik muhim o'rin egallaydi. Chaqiriqqa qadar boshlang'ich tayyorgarlik mashg'ulotlari, harbiy-vatanparvarlik va ommaviy mudofaa tadbirlarida o'quvchi-yoshlar Qurolli Kuchlarimiz saflaridagi bo'lajak xizmatlari va Vatanimiz himoyasi uchun zarur bo'lgan bilim, ko'nikma va malakani o'zlashtiradi. Ular bu mashg'ulotlar va tadbirlar davomida harbiy ish

va xizmat asoslarida dastlabki ma'lumotlarni oladi. Qurolli Kuchlarimiz tarixi, bugungi kundagi faoliyati va salohiyati, qo'shin turlari, ularning vazifalari, xizmat qilish tartiblari kabi zarur bilimlarni chuqur o'rganadi.

Qachonki qaysi bir davlat yoki armiya shaxsiy axloqiy-siyosiy va psixologik jihatdan sabotli bo'lsa, ular o'z Vatanga cheksiz muhabbatda, sadoqatda bo'lsa, bunday xalq yoki qo'shin hech qachon yengilmaydi. Chunki ular siyosiy jihatdan yetuk, psixologik jihatdan esa sobit insonlardir. Bunday insonlar har qanday mashaqqat va qiyinchiliklar oldida esankiramaydi, ikkilanmaydi, aksincha, bor shijoati ila faqat g'alaba uchun kurashadi.

Tarixdan ma'lumki, ko'p urushlar natijasi jang qilayotgan tomonlar qo'shinlarining ruhiy holatiga bog'liq bo'lgan. Demak, bizning vazifamiz o'z Vatanga cheksiz sadoqatli, ruhiy jihatdan yetuk yosh avlodni tarbiyalash, ularda Vatan ravnaqi, mustaqilligi uchun zarur bo'lsa, jonini fido etishga tayyor bo'lishdek xislatlarni shakllantirishdir.

Armiya shaxsiy tarkibi nafaqat siyosiy va ruhiy jihatdan, balki harbiy-texnik tayyorgarligi jihatidan ham yuqori saviyada bo'lmog'i kerak. Bu shaxsiy tarkib harbiy bilim va malakalarni puxta egallashi, intizomli va tartibli bo'lishi, harbiy qasamyod va nizom talablarini so'zsiz bajarishi, qo'l ostidagi jangovar texnika va qurollardan mohirona foydalana olishi kerak, deganidir.

Yoshlarda, albatta, yuqorida aytilgan barcha jangovar xislatlar harbiy-vatanparvarlik tarbiyasining asosiy yo'nalishlaridan biri bo'lgan harbiy-texnik tayyorgarlikda shakllantiriladi. Bu ishlarda harbiy-texnik jihatdan yuqori darajada tayyorlangan chaqiriluvchi yoshlarni tarbiyalashda chaqiriqqa qadar boshlang'ich tayyorgarlik mashg'ulotlari, "Vatanparvar" tashkiloti qoshidagi to'garaklar faol bo'lishi kerak.

Harbiy-vatanparvarlik tarbiyasining asosiy yo'nalishlaridan yana biri yoshlarning jismoniy tarbiyasi hisoblanadi. Bu yo'nalish yoshlarda jismoniy chiniqish, ya'ni ularning harbiy xizmat davrida ham, tinchlik vaqti ham katta jismoniy yuklarni sabot bilan yengish qobiliyatini tarbiyalaydi.

Jismoniy jihatdan chiniqqanlik bu nafaqat sog'lom tanaga ega bo'lish, balki doim Vatan himoyasiga shaylik hamdir.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, bizning asosiy vazifamiz yoshlarni ana shu jarayonga jalb qilish, ular ongiga O'zbekiston kelajagi aynan yoshlar qo'lida ekanini singdirish, kundalik mashg'ulotlar, turli tadbirlar davomida ularda vatanparvarlik, millatparvarlik tuyg'ularini uyg'otishdir.



## YURT TINCHLIGI VA OSOYISHTALIGI ISHONCHLI QO'LLARDA

Rishton tumani "Zohidon" mahalla fuqarolar yig'inida Odinaxon va Musajon Mirzajonovlar oilasi umrguzaronlik qiladi. Oddiy va samimiy oilaning hayot tarzi, ish amallari ko'pga ibratli. Musajon aka temiryo'l tarmog'ida, turmush o'rtog'i tibbiyot sohasida ishlab nafaqaga chiqqandi. Oilada to'rt o'g'il kamolga yetdi. Ularning ikki nafari hayotini sharaflari va mashaqqatli kasb — Vatan himoyachisi bo'lishga bag'ishlagan o'g'lonlardir.

— Harbiy xizmatchining ota-onasi bo'lish sharafligi, shu bilan birga, katta mas'uliyat, — deydi mehnat faxriysi Musajon aka. — O'zim ham bolalikdan harbiy bo'lishga qiziqqanman. Lekin yolg'iz onam, keksaygan bobom va buvimni o'ylab, harbiy bo'lish orzusidan voz kechgandim. Mamlakatimiz mustaqil bo'lgan ilk kunlaridanoq o'g'illarim sharafligi va muqaddas burch yo'lida o'qib-o'rganishi, jismonan va ma'nan sog'lom kamolga yetishi yo'lida harakat qildik. Mehnatlarimiz besamar ketmadi. To'ng'ich o'g'lim Botirjon va kenjamiz Tohirjon harbiy xizmatni o'tash jarayonida ko'pga ibrat, namuna bo'ldi. Shu tariqa hayotini harbiy soha bilan bog'ladi. Shartnoma asosida harbiy qismlarda qolib, yurt tinchligi va sarhadlarimiz daxlsizligi yo'lida sidqiddan xizmat qilib kelmoqda.

Harbiylik yurtini himoya qilishga bag'ishlangan qismatiga qiyoslanadi. Bu bejiz emas. Xizmatga shaylangan kishilardan kuchli iroda, qat'iyat talab etiladi. Aslida, o'g'lini harbiy xizmatga kuzatib, sog'inchi iztirobidan to'lg'ongan onalarga ham qiyin. To'g'ri, bugun zamon o'zgaradi, qalay uyali aloqa vositalari orqali ular bilan gaplashish, hol-ahvol so'rashish oson. Lekin har bir ona o'z jigarbandini bag'riga bosgisi, bir dasturxon atrofida taom yegisi keladi.

— Ayol uchun o'z farzandlari baxtu iqbolini ko'rishdan ulug' ne'mat yo'q, — deydi Odina opa. — Farzandlarim — baxt qanotlarim. Ularni elga kerakli insonlar qilib tarbiyalaganimdan faxrlanaman. Yurtimiz tinchligi, farzandlarim baxtu kamolini alqab, duolar qilib o'tiribman. Harbiylar qayerga jo'natilsa, o'sha yerda yashashga, kerak bo'lsa, o'z jonini yurt himoyasiga bag'ishlashga tayyor insonlar. Shuning uchun ham ularni Vatan himoyachisi, yurt posboni, deb ulug'laymiz. Farzandlarim ta'tilga kelsa, uyimiz charoq'on bo'lib ketadi. Harbiy liboslari o'ziga yarashgan, o'ktam o'g'lonlarimni ko'rib g'ururlanaman. O'g'illarimning qo'llab-quvvatlashi, amaliy yordami bilan yaqinda Umra safarini ado etib qaytdik. Ota-ona uchun bundan katta baxt bo'lmaydi. Bugungi to'kin dasturxon, tinchlik-totuvlik, farovon hayot zamirida kummi tunga ulab, bedor bo'lib xizmat o'tayotgan jonsarak o'g'lonlarimizning hissasi katta.

Vatan himoyachilari kamolga yetgan oila hayot tarzi bilan tanishish jarayonida poytaxtdagi harbiy qismlarning birida xizmat qilayotgan Botirjonning turmush o'rtog'i mehmonga kelganidan xabar topdik. Subhatimiz bevosita harbiylar oilasi turmush tarziga bog'lanib ketdi.

— Hayotimni harbiy inson bilan bog'laganimdan afsuslanmayman, — deydi Faridaxon Mirzajonova. — Turli hududlarga ko'chib o'tish, yangi qo'ni-qo'shnilar bilan til topishish, ish, uy yumushlari, farzand tarbiyalashdek mas'uliyatli ishga bosh-qosh bo'lish oson emas, albatta. Lekin bu — hayot. Uning shirin va achchiq damlari bo'lishi tabiiy. So'nggi yillarda nafaqat harbiylarga, balki ularning oila a'zolariga ham qator imtiyoz va to'kis sharoitlar yaratib berilyapti. Bu islohotlar samarasini o'z hayotim misolida ko'rib turibman. Harbiy xizmatchilar uchun poytaxtimizning Yashnobod tumanida qurilgan yangi uylardan biriga ko'chib o'tdik. To'ng'ich farzandim Bekzod harbiy xizmatchi farzandlariga berilgan imtiyoz va imkoniyatlar tufayli O'zbekiston davlat jahon tillari universitetiga o'qishga qabul qilindi. Maqsadlari bir olam. Otasi kabi harbiy sohada xizmat qilish, yurtga munosib farzand bo'lish yo'lida bor kuch va imkoniyatlarini ishga solmoqda.

Vatan himoyachilari kuni bayrami oldidan bu oilaga keluvchilar yanada ko'paydi. Harbiy-vatanparvarlik oyligi doirasida hududdagi 13- va 34-umumta'lim maktablarida harbiy xizmat o'tayotgan askarlar, ularning yaqinlari, o'quvchi-yoshlar, mahalla faollari, nuroniyalar ishtirokida "Uch avlod uchrashuvi" tadbirlari, sport musobaqalari o'tkazish an'anaga aylangan.

— Mahallamizda harbiy xizmat burchini o'tayotgan o'ndan ortiq oila farzandlari bor, — deydi fuqarolar yig'ini raisi Rasuljon Razzoqov. — Ularning hayot, ish amallari ko'plar uchun ibratli. Shu bois, bo'lsa kerak, yoshlar o'rtasida harbiylik kasbiga qiziqish katta. Bir paytlar harbiy xizmatga bormaslikka harakat qilingan. Bugun esa hamma xizmatga borish uchun oshiqmoqda. Sababi, yurt tinchligi yo'lida xizmat qilayotgan yoshlar har jihatdan sog'lomlashtirish mashqlarini bajarayotgan yoshlarga ko'zingiz tushadi. Ularning aksariyati harbiy bilim yurtlarida o'qish istagida bo'lganlardir. Yoshlar o'z maqsadlari yo'lida har jihatdan chiniqishga, bilim va ko'nikmasini oshirib borishga harakat qilmoqda. Bu yurtimiz tinchligi va osoyishtaligi ishonchli qo'llarda ekanidan dalolat.

Rasuljon KAMOLOV, *"Yangi O'zbekiston" muxbiri*

## Bugunning gapi

Adham ABDURAHMANOV, *Soliq qo'mitasining Soliq to'lovchilarga xizmat ko'rsatish departamenti bo'lim boshlig'i*

## O'ZINI O'ZI BAND QILGANLAR QAY TARTIBDA SOLIQ TO'LAYDI?

## Boshlanishi 1-betda

Xususan, 2024-yil 1-yanvardan boshlab o'zini o'zi band qilgan shaxslarning mehnat faoliyati natijasida yoki tovarlarni (xizmatlarni) realizatsiya qilishdan olingan daromadlariga ushbu daromadlar soliq davrida yuz million so'mdan oshgan kundan e'tiboran, yakka tartibdagi tadbirkorlar uchun belgilangan tartibda soliq solinadi.

Ma'lumki, Soliq kodeksining 461-moddasi birinchi qismi 2-bandida soliq davrida tovarlarni (xizmatlarni) realizatsiya qilishdan olingan daromadi yuz million so'mdan oshgan, lekin bir milliard so'mgacha bo'lgan yakka tartibdagi tadbirkorlar aylanmadan olinadigan soliq to'lovchilar hisoblanishi belgilangan.

Shunga asosan, soliq davrida mehnat faoliyati natijasida yoki tovarlarni (xizmatlarni) realizatsiya qilishdan olingan daromadlariga yuz million so'mdan oshgan kundan e'tiboran ushbu kodeksning 467-moddasiga asosan, 4 foizlik stavkada aylanmadan olinadigan soliqni to'lash lozim bo'ladi.

O'zini o'zi band qilgan shaxslar elektron tijorat ishtirokchisi hisoblanib, ya'ni elektron savdo maydonchasida tovarlarni (ishlarni,

Aytaylik, o'zini o'zi band qilgan shaxsning joriy yil yanvar oyida mehnat faoliyatidan olgan daromadi 101 million so'mni tashkil etsa, oshgan qismidan, ya'ni 1 million so'mdan 4 foizlik stavkada soliq to'laydi. Bu 40 ming so'mni tashkil qiladi.

xizmatlarni) chakana sotish bo'yicha faoliyatni amalga oshirganda ham aylanmadan olinadigan soliq 2 foizlik stavkada to'lanadi.

Prezidentimizning 2022-yil 30-dekabrda farmoni asosida beshinchi toifaga kiritilgan hududlardagi o'zini o'zi band qilgan shaxslarga aylanmadan olinadigan soliq stavkasi 2026-yil 1-yanvargacha qadar 1 foiz miqdorida qo'llaniladi.



Aytaylik, o'zini o'zi band qilgan shaxsning joriy yil yanvar oyida mehnat faoliyatidan olgan daromadi 101 million so'mni tashkil etsa, oshgan qismidan, ya'ni 1 million so'mdan 4 foizlik stavkada soliq to'laydi. Bu 40 ming so'mni tashkil qiladi.

O'z navbatida, ushbu shaxslarga aylanmadan olinadigan soliq bo'yicha har oyda hisobot davri yakunlari bo'yicha — hisobot davridan keyingi oyning o'n beshinchi kunidan hamda yil yakunlari bo'yicha — soliq davridan keyingi davrning

15-fevralidan kechiktirmay hisobot taqdim etish majburiyati yuklanadi.

To'lovlarni amalga oshirish hisobot taqdim etish muddatidan kechiktirmay bajariladi. Ya'ni yuqoridagi muddatda qayd etilgan 100 million so'mdan oshgan daromadning 1 million so'mi uchun fevral oyining 15 sanasiga qadar soliq hisoboti taqdim etilishi hamda shu muddatga qadar to'lov amalga oshirilishi kerak.

O'zini o'zi band qilgan shaxslar yuridik shaxslarga xizmat ko'rsatishda (tovarlarni sotishda) elektron hisob-kitob fakturalarni taqdim qilishi hamda nazorat-kassa texnikasi va bank plastik kartochkasi orqali hisob-kitoblar bo'yicha to'lov terminallaridan foydalanadi. Shuningdek, tijorat banklarida hisobvaraqlar ochgan holda faoliyat yuritishlari mumkin. Ushbu ma'lumotlar Soliq qo'mitasining ma'lumotlar bazasida tashqi manba axborotlari asosida shakllanadi. O'zini o'zi band qilgan shaxslarning daromadi yuqorida qayd etilgan ma'lumotlar asosida aniqlanadi.

Shu o'rinda bir savol tug'iladi. Daromadi 100 million so'mdan oshgan o'zini o'zi band qilgan shaxslar yakka tartibdagi tadbirkor (YTT) lar kabi xodimlarni yollay oladimi? Ma'lumki, yakka tartibdagi tadbirkorlar

5 nafargacha xodim yollagan holda faoliyat taqdim etish majburiyati yuklanadi. Xodimni yollash bevosita ikki tomon o'rtasida tuziladigan mehnat shartnomasi asosida amalga oshiriladi hamda soliq organlariga har bir yollangan xodimni majburiy tartibda hisobga qo'yishi lozim bo'ladi. Shu bilan birga, YTT zimmasiga har bir, ya'ni 5 nafar ishchi uchun daromad solig'i hamda ijtimoiy soliq to'lovini amalga oshirish majburiyati yuklanadi. Shunga asosan, o'zini o'zi band qilgan shaxslar o'z faoliyatida yollanma xodimlar mehnatidan foydalanishga hamda tadbirkorlik subyektlariga yollangan xodim sifatida mehnat faoliyatini amalga oshirishga haqli emas.

Ammo qayd etish kerakki, kiritilgan o'zgartirish va qo'shimchalarga asosan, o'zini o'zi band qilgan shaxsning jami daromadi soliq davrida 100 million so'mdan oshsa, YTTga aylanmaydi. Faqatgina soliq to'lash majburiyati YTT sifatida belgilanadi. Ijtimoiy soliq to'lash ixtiyoriy. Ya'ni daromadi 100 million so'mdan oshgan o'zini o'zi band qilgan shaxslar ham yiliga bir marotaba bazaviy hisoblash miqdorining bir barabari miqdorida mehnat stajini hisoblash uchun ijtimoiy soliq to'lashi mumkin.



Yangi O'zbekiston orzusi

MAQSADIMIZ ham, YO'LIMIZ ham ANIQ

MAS'ULIYAT VA DAXLDORLIK TUYG'USI KO'ZLAGAN MARRAMIZGA YETKAZADI

(Ikkinchi maqola)

“ Milliy g'oya, milliy mafkurani ishlab chiqish va uni shakllantirishdek sharaflil vazifani ado etishda har qaysi millatning eng ilg'or vakillari, kerak bo'lsa, mutafakkirlari, xalq va Vatan ravnaqi yo'lida hayotini bag'ishlaydigan fidoyi ziyolilari mehnat qilishi lozim. ”



Shukritdin PAXRUDINOV, siyosiy fanlar doktori, professor

Boshlanishi 1-betda

**Birinchi**dan, mamlakatimizdagi barcha tizim, tashkilotlar faoliyatini “Milliy tiklanishdan — milliy yuksalish sari” g'oyasini har tomonlama chuqur qaror toptirish vazifasiga bo'yusundirish lozim. Ko'p hollarda faqat milliy g'oyaning dolzarbligi va zarurligini asoslash bilan o'ralib qolamiz. Vaholanki, gap uni odamlar ongiga chuqur singdirish haqida bormoqda. Ya'ni jamiyatimizda milliy g'oyani shakllantirishning eng samarali chora-tadbirlarini, uslub va vositalarini ishlab chiqish bilan bog'liq barcha masalalarni kechiktirmay hal qilish darok. Nazarimizda, ushbu vazifaga yagona tizim sifatida yondashmoq zarur. Mazkur tizimga ta'lim-tarbiya muassasalarini bilan bir qatorda, boshqa muassasalar, ilm-fan, nodavlat va jamoat tashkilotlari, hokimlik va vazirliklar ham bevosita mas'ul bo'lishi kerak.

**Ikkinchi**dan, bu vazifani bajarishda, fikrimizcha, uslubiy yondashuv muammosini to'g'ri hal qilish muhim ahamiyatga ega. Boshqacha qilib aytak, mafkuraviy targ'ibot vositalarini qo'llashdan oldin yoshlar jamoasi bo'ladimi, mehnat jamoasi bo'ladimi yoki tuman, viloyat aholisini — ularning o'ziga xos intellektual, ijtimoiy jihatlari, onglik darajasini, albatta, o'rganib chiqish va hisobga olish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Bu o'rinda gap milliy g'oyani targ'ib qilish jarayonida tanlanma yondashuv zarurligi haqida bormoqda. Gap shundaki, inson, guruh va umuman, jamiyat tafakkurida mustaqilligimizning mevasi hamda buyuk kelajagimizni ta'minlovchi, mamlakatimizni turli g'animlar tahdididan kuchli himoya qiluvchi milliy g'oyamizni qaror toptirish, uni mustahkam ishonch darajasiga ko'tarishga bir xil qoliplidagi ustublar bilan yondashish va ularidan samarali natijalar kutish juda katta xato bo'lar edi.

Shuning uchun ham mafkuraviy tarbiya ishlari samaradorligini ta'minlovchi uslub va vositalar ustida tinmay bosh qotirish, izlanishlar olib borish hamda ularni amaliyotga kechiktirmasdan, to'g'ri tatbiq qilish ustuvor vazifaga aylantirish kerak. Bu o'rinda milliy g'oyani shakllantirish jarayonida birvarakayiga ikki muhim masalani hal qilishga alohida e'tibor berish zarur: birinchisi, mustaqil Vatanimizning porloq kelajagi, kuchli huquqiy-demokratik davlat va fuqarolik jamiyatini, yangi O'zbekiston va Uchinchi Renessans poydevorini barpo etishdek ulug' maqsadga qaratilgan kuchli ishonchini qaror toptirish, ikkinchisi, mafkuraviy tarbiya vositasida yoshlarda ekstremizm, aqidaparastlik, umuman, yot g'oyalarga qarshi kuchli mafkuraviy immunitetni shakllantirishdan iborat.

Bu holat mafkuraviy ishlarimizga uslubiy jihatdan keng qamrovli yondashish, uslubiy yo'nalishlar xilma-xilligini taqozo etadi. Mafkuraviy xavf-xatarlar faollashib, bevosita tahdid darajasiga ko'tarilishi ehtimoli har qachongidan ham kuchaygan bugungi sharoitda yoshlar tafakkurida mafkuraviy immunitetni mustahkamlash va rivojlantirish milliy g'oyani shakllantirish vazifasining eng muhim o'zigidir. Ushbu sohada sa'y-harakatlarimiz natijasida muayyan darajada mafkuraviy ishlarimiz samaradorligini belgilovchi muhim vosita bo'lib xizmat qiladi.

Masalani yana bir muhim jihati shundaki, milliy g'oyani shakllantirish bevosita mustaqillik bergan demokratik huquqlar,

konstitutsiyaviy huquq normalarining yoshlar tomonidan yuqori darajada anglanishi jarayoni bilan chambarchas bog'liq bo'lishi kerak. Chunki milliy g'oyaning hayotimizda g'oyat muhimligini bildiruvchi asoslar ana shu konstitutsiyaviy huquqda mujassam. Zero, milliy g'oyani inson ongi hamda tafakkuriga singdirish va rivojlantirish uchun keng imkoniyat yaratgan, fuqarolarimizga mustaqillik huquqini bergan omil Konstitutsiyamizdir.

Milliy g'oya, milliy mafkurani ishlab chiqish va uni shakllantirishdek sharaflil vazifani ado etishda har qaysi millatning eng ilg'or vakillari, kerak bo'lsa, mutafakkirlari, xalq va Vatan ravnaqi yo'lida hayotini bag'ishlaydigan fidoyi ziyolilari mehnat qilishi lozim. G'oyaviy tarbiyaning mukammal mexanizmini barpo qilishda takomillashgan uslublardan foydalanish haqida gap borar ekan, masalaning yana bir o'ta muhim jihati g'oyani targ'ibot qaratmoqchimiz. Bu g'oyaviy targ'ibot ishlarining asosiy tamoyillari bilan bog'liq bo'lgan masaladir. Milliy g'oyani targ'ib va hayotga joriy qilishda xalqchilik yetakchi tamoyil bo'lishi lozim. Bu o'rinda buyruqbozlik, ma'muriy yakkahokimlik, byurokratizmga yo'l qo'yish noxush oqibatlarga olib kelishi mumkinligini unutmash kerak. Ayniqsa, hokimlik tizimi vakillari nihoyatda ehtiyot bo'lishi maqsadga muvofiq. Chunki ma'naviyatga daxldor ishlarni jon kuydirib qilish o'rninga, ikkinchi darajali masala sifatida qarayotgan rahbarlar kam emas.

Mafkuraviy targ'ibot-tashviqot ishlariga butunlay yangicha shijoat bilan kirishish zarur ekan, avvalo, buning uchun sog'lom muloqot madaniyatini tarbiyalashning uslub va vositalarini hal qilish o'limiz zarur. Ushbu odamlarning yoshi, ijtimoiy holati, fikr-xayoli, orzu-intilishlari chuqur qamrab olingan bo'lishi kerak. Ana shunda jamiyatning har bir a'zosi, ayniqsa, yoshlar qalbiga yo'l topa olamiz. Yoshlarimizga ko'pincha pand-nasihat qilish bilan o'ralib qolaymiz. Siyqasi chiqqan pand-nasihat haddan oshib ketgani bo'sa, yoshlar uni ko'pincha dashnom sifatida qabul qilayotir.

Yoshlar tafakkurini milliy g'oya bilan qurollantirmoqchi ekanimiz, buning uchun, birinchi navbatda, ularda erkin shaxs ma'naviyatini yuksaltirish zarurligiga alohida e'tibor



berish lozim. Chunki o'z haq-huquqini yaxshi biladigan, mustaqil fikrli yigit-qizgina mustahkam e'tiqodga ega bo'ladi. Ushbu g'oya mamlakatimizda yoshlar siyosatining asosiga aylantirildi. Ya'ni millatimiz, davlatimiz va jamiyatimiz taqdiri, buyuk kelajagi bevosita yoshlar kamoloti, barkamol bo'lishi bilan uzviy bog'liqlikka qurilmog'unda. Shunday ekan, mamlakatimizning bebaho salohiyati, buguni va kelajagining asosi bo'lgan yoshlar hamda ularning fikr-xayoli, dunyoqarashi to'g'ri shakllanishi, orzu-intilishlari qaror topishi to'g'risida qayg'urish, bunda katta mas'uliyat hissini sezish jamiyatimiz oldida turgan muhim vazifadir.

Yoshlar ravnaqi tufayliga jamiyatimiz kuchiga kuch, quvvatiga quvvat, boyligiga boyluk qo'shilishini shunchaki anglash emas, balki hayotiy faoliyatimizning asosiy tamoyiliga aylantirish vaqti allaqachon kelgan.



Jahon tajribasiga murojaat qilsak, rivojlangan mamlakatlarning barchasi mana shu yo'ldan borgan. Shu jihatdan olib qaraganda, bugun yoshlarimiz tafakkurida ona yurtimiz ko'zlayotgan ezgu maqsadlar bilan hamohang dunyoqarashni shakllantirish bosh strategik vazifa bo'lib turibdi.

Mafkuraviy immunitet rivojlanayotgan har qanday jamiyat uchun suv va havodok zarur siyosiy-ijtimoiy omildir. Mamlakat miqyosida bunday immunitetning qay darajada mustahkam shakllanganiga qarab, jamiyat nechog'liq kuchli yoki kuchsizligini muayyan darajada belgilash mumkin. Jahon tajribasiga ko'ra, jamiyatda mafkuraviy immunitetning qaror topish jarayoni aslida jamiyat hayotining barcha bo'g'inini qamrab olgan holdagina amalga oshadi. Chunki uning o'ziga xos murakkabliklari mavjud. Shuning uchun ham olimlarimiz, mutaxassislarimiz ushbu vazifani amalga oshirishning ilmiy-nazariy jihatlari xususida bugun har qachongidan ko'proq bosh qotirsa, amaliy taktiklar bersa, maqsadga muvofiq

birgina qadam nihoyatda xunuk oqibatlarga olib kelishi mumkinligi ayni haqiqat.

Prezidentimiz yig'ilishlarning birida “Bugun qancha yoshlar soxta aldovlarga uchi, o'z umrini xazon qilayotganini o'ylab, to'g'risi, turlari uxlamasdan chiqaman. O'zingiz aytib, aziz birodarl, bu achchiq haqiqat yuragimizga xanjar bo'lib sanchilishi kerak emasmi?”

Axir, kechagina shu yoshlar, o'zimizning qorako'zlar, birimizning mahalladoshimiz, birimizning o'g'limiz, birimizning qizimiz yoki jiyanimiz edi-ku! Ular qachon adashdi, qachon noto'g'ri yo'lga kirib ketdi?

Biz nega g'afalda qoldik? Qachon, qayerda xatoga yo'l qo'ydik? Farzandlarimiz qachon begonalarim qo'lga o'tib ketdi? Nima jish urdiyu ulan o'z ota-onasi, o'z yurtining dushmaniga aylani qoldi?

Bugun bu muhdish balo-qazoning oldini olmasak, bor kuchimizni shunga safarbar etmasak, ertaga kech bo'ladi”, deb kuyinchalik bilan gapirgan edi. Ha, qanchalik achchiq bo'lmasin, bu so'zlar haqiqat. Zamonaviy sharoit yaratib, katta ma'naviy sarflab 11-17 yil ta'lim-tarbiya beryapmiz, lekin ayrim yoshlar radikalizm domiga duchor bo'lmoqda. Savol tug'iladi: ta'lim-tarbiyada qanday xatoga yo'l qo'ydik? Menimcha, javobi aniq: ta'lim-tarbiya samarasiz yoshlarning g'oya, mafkura nimaligini bilishi va yodlashi bilan birga, unga ishonchi bilan belgilanishi kerak. Ana shunda ko'zlangan natijaga erishamiz.

Milliy g'oyani shakllantirish jarayonida yoshlarga xos o'ta qiziquvchanlik, o'zini namoyon qilishga moyillik, ba'zan esa tabiiy ravishda bo'ladigan maksimalizm ko'rinishlariga ham jiddiy e'tibor qaratish lozim. Milliy g'oyani farzandlarimiz ongiga singdirishda mamlakatimiz oldiga qo'yilgan buyuk maqsad va vazifalar bilan ularning mohiyati chuqur ochib berilishi har qatorda, jarayonda yoshlarning ham o'ziga xos o'rni va roli borligiga asosiy e'tibor qaratilmog'i zarur. Toki yoshlar o'zlarini mamlakatimizda ro'y berayotgan ulkan o'zgarishlarning ajralmas bo'lagi sifatida his qilsin. Ularda jamiyat hayotidan begonalarlashish kayfiyatining vujudga kelishiga yo'l qo'ymasligimiz darok. Oldi olinmagan bunday holat rivojlanib, avvaliga ekstremistik kayfiyatga, asta-sekinlik bilan mafkuraga aylinishi hech gap emas. Bu mafkurani to'g'ri deb qabul qilgan shaxsning dunyoqarashini o'zgartirishga oila va mahallaning kuchi yetmaydi.

Xa, yoshlar muammosi bilan shug'ullanishga hammasi berdek mas'ulim. Ammo bu o'rinda bir jihati e'tirof etish zarur: milliy g'oya va milliy mafkurani yoshlarga targ'ib va tashviq qilishda qatnashuvchi ustozlar, mutaxassislarimiz ma'naviy holati va darajasiga ham katta e'tibor qaratish lozim. Jamiyatimiz tub asoslariga daxldor, millatimiz uchun muhim hisoblangan milliy g'oya va mafkura masalasiga be'e'tibor qarab yoki uni duch kelgan odamga ishonib bo'lmaydi. Bilib-bilmasdan, ba'zan esa nodonlik va tajribasizlik yoki bilimsizlik oqibatida mafkuraviy tarbiya

ishlarida kichikgina xatolikka yo'l qo'yish dahshatli oqibatlarga olib kelishi mumkin. Bu bilan jamiyatimizda ro'y berayotgan har bir voqea-hodisani sinchkovlik bilan kuzatib turgan g'oyaviy dushmanlarimiz tegirmoniga suv quygan bo'lamiz. Endi mafkurani yoshlar tafakkuriga singdirish masalasiga loyq yondashishga mutlaqo haqqimiz yo'q. Aksincha, shu paytgacha yo'l qo'yilgan xatolardan to'g'ri xulosa chiqarib, tarixiy tajribalarga suyanishimiz kerak. Ana shunda mafkuraviy tarbiya sohasidagi barcha ishlarimiz samarali yoki jiyanimiz edi-ku! Ular qachon adashdi, qachon noto'g'ri yo'lga kirib ketdi?

Ma'naviyat va ma'rifat masalalari hamda ularidan ko'zlangan maqsadlardan kelib chiqsak, jamiyatimiz oldida turgan nihoyatda ulkan vazifalar ko'z oldimiza namoyon bo'ladi. Shuning uchun ham ma'naviyat va ma'rifat ishlarini ilmiy-uslubiy jihatdan to'g'ri yo'lga qo'yish ustida tinmay bosh qotirish bugun barchamizning oldimizda turgan o'ta mas'uliyatli vazifa ekanini chuqur anglab yetishimiz kerak.

Sohadagi har bir chora-tadbir va boshqa tashkiliy-targ'ibot ishlarini aniq maqsadga yo'naltirib, ularga sarflanadigan vaqt hamda samarasiz oldindan rejalashtirilmo'g'i lozim. Katta xarajat evaziga qanday natija chiqishi oldindan ma'lum bo'lmagan, ba'zan esa faqat kompaniyabozlik nuqtayi nazaridan o'tkaziladigan marosim va tadbirlardan butunlay voz kechish kerak.

Yoshlarni o'zligimiz va qadriyatlarimizga yot, zararli g'oyalardan, ongni egallashga qaratilgan g'arazli intilishlardan asrash har birimizdan mas'uliyat, hushyorlik talab qiladi. Shiddat bilan kechayotgan globalashuv jarayoni “Milliy tiklanishdan — milliy yuksalish sari” degan g'oyaning markaziy maydonga chiqishiga sabab bo'lmoqda.

MAS'ULIYATLI RAHBAR — BARQAROR TARAQQIYOT GAROVI

Mamlakatimizda kadrlar boshqaruvidagi izchil islohotlar rahbarlar faoliyatini xalqchil mezonlar asosida tashkil etishni taqozo etmoqda. Bu esa, o'z navbatida, har bir rahbar uchun mas'uliyat yuklamog'unda. Ushbu jarayon zamonaviy boshqaruvga oid bilim va ko'nikmalarga ega bo'lish talabini qo'yish bilan birga, kasbiy kompetensiyaning shakllanganlik darajasini ochiqloqmoqda. Ayniqsa, bu o'z xizmat vazifasiga halol, vijdonan yondashgan holda, mas'uliyat bilan ishga kirishish, qo'l ostidagi xodimlarga shaxsiy namuna ko'rsatishga bog'liq.

Boshqaruvda sog'lom va ijodiy fikrlash, jamoada ijobiy muhit yaratish, faoliyatning islohotlarga mosligini ta'minlash rahbarlarni har qanday sharoitda o'ziga xos zamonaviy yondashuvlarni belgilashga undaydi. Zero,

islohotlar jadallashuvi har qanday rahbardan o'z kasbiga mas'uliyat bilan qarash, yuzaga kelgan muammolar sababini o'rganish, uni o'z vaqtida bartaraf qilish, qo'l ostidagi xodimlarga munosib mehnat sharoiti yaratishni talab etadi.

Bugungi zamonaviy rahbar zimmasidagi vazifalarga yuksak mas'uliyat bilan yondashish, o'ziga talabchanlik orqali natijaga erishadi. Avvalo, rahbar mas'uliyati — boshqaruv madaniyatining asosiy belgilaridan biri bo'lib, muayyan sohaga javobgarligini ifoda etadi. U alohida yetakchi shaxs sifatida, oddiy xodimdan farqli ravishda ko'lami, kengligi muayyan maqsadga qaratilgan bilan ajralib turadi. Shu bois, har bir davrda rahbar mas'uliyati hamisha muhim sanalgan. Mas'uliyat, avvalo, har bir kishining vijdoni, iymoni bilan birga, jamoa, jamiyat, Vatan va millat oldidagi burchini teran anglashdir. Qolaversa, zimmasiga yuklatilgan vazifaga nisbatan javobgarlik tuyg'usi ham.

Siyosiy mas'uliyatsizlik esa siyosiy kaltabinlik, safsatabozlik, nayrangbozlik, qalloblilik kabi illatlarning nish otishiga sabab bo'ladi. Binobarin, rahbarlik lavozimida kishidan yuksak ong va tafakkur, hushyor idrok talab etiladi. Tarixiy tafakkur va siyosiy ongning qay darajada shakllanishi, avvalo, jamiyat taraqqiyoti, ichki va tashqi shart-sharoitlarga bog'liq holda kechadi.

Har bir rahbar mas'uliyatini his eta olmagani, ortidan jamoani ergashira oladi. Faoliyat samaradorligi ham rahbarning salohiyati va boshqaruvchanligiga bog'liq. Fransuz yozuvchisi Romen Rollan ta'kidlaganidek, “Har bir jasoratli, har bir adolati shaxs Vatanga shon-sharaf olib keladi”. Aksincha, bugungi zamonaviy islohotlar sharoitida ayrim rahbarlarning mas'uliyatsizligi, nokompetentligi, faoliyatida yuzaga keladigan muammolarni hal qilishda ilmiy-amaliy yondashuvlar mavjud emasligi, faoliyati samaradorligining pastligi davr talabi va mamlakatimizning strategik maqsadlariga javob bermasligini namoyon qilib qo'ymoqda.

Shu bois, milliy kadrlarni tanlash, tayyorlash va tayinlashda meritokratiyaga asoslangan, subyektiv faktorlar ta'siridan xoli mexanizm qo'llash asosida ulduzsiz va uzviy tizimni shakllantirish maqsadga muvofiq. Salbiy holatlarning oldini olish uchun e'tibor qaratish lozim bo'lgan muhim jihatlarga to'xtalish kerak.

**Birinchi**dan, rahbarlar islohotlar samaradorligini oshirishga qaratilgan ma'naviy aniq, manzilli va maqsadli yo'naltirishni nazoratga olish orqali noteng taqsimlash, ba'zi holatlarda o'zlashtirish, davlat va jamiyatga keltiriladigan moddiy-ma'naviy zararining oldini olishi kerak. Shuningdek, o'zi rahbarlik qilayotgan tuman, shahar yoki viloyatni kompleks rivojlantirish bo'yicha hududagi ichki imkoniyatlar va resurslarni topib, ularidan mamlakatdagi islohotlar samarasini yanada boyitish va izchil amalga oshirish yo'lida maqsadli foydalanmog'i lozim.

**Ikkinchi**dan, muayyan hududning obyektiv holatidan kelib chiqib, aholiga munosib turmush sharoitini yaratish barcha bo'g'indagi rahbarlarning asosiy vazifasi bo'lishi zarur. Buning uchun har bir rahbar faoliyatini vijdonan bajarishi, o'z ustida tinimsiz ishlashi, Prezidentimiz ta'bir bilan aytadigan bo'lsak, o'zini qiyinashi kerak. Ya'ni xalq tinch bo'lishi uchun rahbar “notinch” bo'lishi kerak. Islohotlarga javoban shijoatini ko'rsatishi kerak. Shundaygina davlat va jamiyat barqaror taraqqiyotini ta'minlashga hissa qo'shgan bo'ladi.

**Uchinchi**dan, xalqning tinchligi, buguni va ertasiga ishonchi hamda hayotidan rozi bo'lishi, avvalo, har bir bo'g'indagi rahbarlarning muayyan hududlardagi ishlar natijadorligiga bog'liq. Ular faoliyatining samaradorligi har bir bo'g'in rahbarining doimiy izlanishi, muammolar yechimini topishi va oqibatlarini ko'ra bilishida namoyon bo'lishi kerak.

Ana shundaygina rahbar faoliyatida mas'uliyat shakllanadi. Chunki u martabaga lavozimi, xohish-istagi, subyektiv maqsadi, mansabi yoki vakolati bilan emas, balki odamiylik, insonlarga mehri, g'amxo'rliqi, xalqparvar va vatanparvarligi, fuqarolarning og'irini yengil qilish bilan erishadi.



## 2024-yil — Yoshlar va biznesni qo'llab-quvvatlash yili



Iroda TOSHMATOVA,  
"Yangi O'zbekiston" muxbiri

### Boshlanishi 1-betda

Oxirgi yillarda O'zbekiston tadbirkorlar yurtiga aylanib boryapti. Bu yurtdoshlarimizning, qolaversa, xorijliklarning e'tirofi. Ilgari hech qachon biznes egalari barcha boshqarilgan ishchilarning imkoniyat berilmagan. 2016-yildan keyin yurtimizda qulay tadbirkorlik muhiti shakllandi. Odamlar biznes yuritishda haqiqiy erkinlikni his qilib, o'z faoliyatida ko'rib, bilib, bu orqali ishga bo'lgan ishonchi ortib bormoqda.

— Shu yo'nalishdagi islohotlar avj pallasiga kirgan 2017-2022-yillar davomida tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirish hamda tizim vakillari huquqlarini himoya qilish yo'nalishida jami 3 mingdan ortiq qonunchilik hujjatlari qabul qilindi, — deydi Oliy Majlis Qonunchilik palatasi Spikeri o'rinbosari Aktam Haitov. — Davlatimiz rahbari Prezidentlik faoliyatining dastlabki davridayoq islohotlarni ayni shu og'riqli nuqtadan boshlagani bejiz emas. Chunki ilgari bir tadbirkor ish boshlasa, uning faoliyatiga aralashish, huda-behuda tekshiruvlar bilan to'liq qo'yadiganlar ko'p edi. Bunday tekshiruvlar aksariyat hollarda o'zining salbiy oqibatlarini sabab O'zbekistonda odamlar tadbirkorlik qilishga hayiqib qolgan, bo'yinga solinadigan bu tushov tufayli ko'p ishbiarmonlar bankrotlikka uchragan va boshqalar haqida ortiqcha gapirishga hojat yo'q. Yillar davomida saqlanib kelgan bu tizimni isloh qilish ham oson bo'lmadi, ammo tashlangan qadam qat'iy edi.

Avvalo, 2016-yilning kuzidan boshlab mamlakatimizda tadbirkorlarga munosabat tubdan o'zgardi. Davlatimiz rahbarining 2016-yil 5-oktabrdagi "Tadbirkorlik faoliyatining jadal rivojlanishini ta'minlashga, xususiy mulkni har tomonlama himoya qilishga va ishbiarmonlik muhitini sifat jihatidan yaxshilashga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi farmoni bu boradagi dastlabki katta qadam bo'ldi. Zero, ushbu hujjat bilan tadbirkorlik subyektlari faoliyatini rejadan tashqari, shuningdek, ularni jinoyat ishlari doirasida muqobil tekshirishlarining barcha turi bekor qilinganini tarixiy kun sifatida eslash mumkin.

Shu tariqa qat'iy qadamlar bir-biriga ulandi. Sohoni rivojlantirishga davlat siyosati darajasida e'tibor qaratilib, tadbirkorlik subyektlarining huquq va qonuniy manfaatlarini ishonchli himoya qilish, iqtisodiyotda davlat ulushini bosqichma-bosqich kamaytirishga qaratilgan aniq manzilli chora-tadbirlar amalga oshirildi. Biznes yuritishga doir ruxsatnomalarni rasmiylashtirish tartibi soddalashtirilib, muddati qisqartirildi. Litsenziyalash va ruxsat berish tartib-taomillari tubdan takomillashirildi. Davlat xizmatlari ko'rsatishning umumiy muddati 787 kundan 471 kungacha qisqartirilib, tadbirkorlik sohasida 132 ta litsenziya va ruxsat berish tartib-taomillari bekor qilindi. Davlat idoralari tomonidan fuqarolar va tadbirkorlardan jami 73 ta hujjat hamda ma'lumotnomalarni talab qilish amaliyotidan ham voz kechildi.

Natijada ichki va tashqi bozorda o'z nufuzi va brendiga ega tadbirkorlar sinfi shakllana boshladi. Barcha tarmoqlarda tadbirkorlik muhiti yaratilib, kichik va o'rta biznes hayotimizga jadal kirib keldi. Birgina 2023-yili yurtimizda ro'yxatdan o'tgan kichik tadbirkorlik subyektlari soni 600 mingdan oshgani, mamlakatimizda har yili yaratilayotgan ish o'rinlarining 90 foizi xususiy sektor hissasiga to'g'ri kelayotgani fikrimizning yorqin dalili. Ushbu tarmoqda 5 milliondan ziyod aholi, ayniqsa, yoshlar mehnat qilayotgani xususiy biznesning nafaqat iqtisodiy, balki ijtimoiy hayotimizdagi o'rni ham oshib boryotganini yaqqol ko'rsatadi.

### Jahon bozoriga chiqish endi orzu emas

O'zbekiston — o'z yo'lga ega va mana shu yo'lda dadil rivojlanayotgan davlat. Davlatimiz bundan 7 yil oldin biznes vakillari-ga chin ma'noda qo'l uzatdi va ularga katta

ishonch bildirdi, har qadamda qo'llab-quvvatladi. Natijada yurtimizda tadbirkor davlatning ishonchli hamkori, davlat esa har bir biznes vakilining yaqin do'stiga aylandi. Ha, aynan do'stiga aylandi.

— O'tgan yili yangi zavodimiz ochilganida davlatimiz rahbari kelib, korxonamiz faoliyati bilan tanishish asosida menga "Do'stim, Ulug'bek", deb murojaat qilganidagi hayajonimni tasvirlab berolmayman. Prezident bir tadbirkorga do'stim, deb o'ziga yaqin olishining o'zi har qanday kishiga qanot beradi, — deydi "Orient ceramic" xususiy korxonasi ta'sischi, "Me'nat shuhrati" ordeni sohibi Ulug'bek Rasulov. — Yana "Men sen

iqtisodiyoti shuncha rivojlanib boradi, — deydi O'zbekiston Eksporthilar uyushmasi raisi Yorqin Malikov. — Bu rad etib bo'lmaydigan haqiqat va oxirgi yillarda yurtimizda ana shunday jarayon kechmoqda. Ya'ni tadbirkorlarni qo'llab-quvvatlashning o'zimizga xos, milliy va xalqaro talablar darajasidagi tizimi yaratildi, bun-

### Ishbiarmonlar tashkilotining vakolati kengaydi

Tadbirkorlik qulay muhit bo'lgan joydagina rivojlanadi. Yangi O'zbekistonda ana shu muhitning shakllanish bosqichlari qanday faollik bilan kechgan bo'lsa, sohani rivojlantirish

nafaqat tadbirkorlarning qonuniy huquqlarini himoya qilish, balki normativ-huquqiy hujjatlar loyihasini tayyorlashda ham bevosita ishtirok etadi. O'tgan yili 365 ta loyiha bo'yicha 789 taklif bildirilgani buning tasdiqi. Tadbirkorlik subyektlari faoliyatiga salbiy ta'sir ko'rsatayotgan 15 ta normativ-huquqiy hujjatga o'zgartirish, qo'shimcha kiritish va bekor qilish bo'yicha takliflar taqdim etildi va qabul qilindi. Vazirlar Mahkamasining qaroriga asosan, palata tomonidan 220 ta yengib bo'lmaydigan kuchlar (fors-major) holatini tasdiqlovchi sertifikatlar ham berildi.

Tashqi iqtisodiy faoliyatda ham yaxshi samaraga erishildi. Ularda bevosita yurtimiz

yorqin voqeasi bo'ldi, desak yangilishmaymiz. Shu kuni Prezidentimiz biznes vakillariga qaratib "Har bir mamlakatda tadbirkorlar katta kuch-qudrat bo'lib kelgan. O'zbekistonda ham iqtisodiyotni rivojlantirish, ish o'rinlari yaratish, kambag'allikni qisqartirish, mahallalarni obod etishga harakat qilaymiz. Bunga eng katta hissa qo'shayotgan kim? Tadbirkorlar! Sizlar har biringiz qahramonsiz, fidoyisiz. Biz sizlar bilan faxrlanamiz", deya ta'kidladi.

Ochiq muloqotda davlatimiz rahbari sohani yanada rivojlantirish, tadbirkorlarga qulay ishbiarmonlik muhiti yaratish yuzasidan beshta muhim yo'nalishni belgilab berdi. Ya'ni "Kichik biznes uchun yangi imkoniyatlar", "O'rta biznes — barqaror iqtisodiy o'sish garovi", "Yangi bozorlarga sifatli va raqobatbardosh mahsulot bilan kirish", "Yuqori daromadli korxonalarni ko'paytirish hamda soddaliq ma'murchiligi va byurokratiyasiz qulay muhit" yo'nalishlari bo'yicha tashabbuslar ilgari surildi. Har biri bo'yicha alohida imtiyoz berilib, ular sentyabr oyida qabul qilingan Prezident qarori bilan mustahkamlandi.

— 2023-yilda biznes egalari, ayniqsa, yosh tadbirkorlarga yanada ko'proq imtiyozlar berildi. Buning ortidan sohaga ko'plab yigit-qizlar kirib kelganiga guvoh bo'ldim. O'zimiz ham ishimizni kengaytirib, yangi biznes hamkorlarini jalb qildik, noana'naviy bozorlar ochdik, — deydi tadbirkor, "Kelajak bunyodkori" medali sohibi Sardor Tursunov. — Davlat bizga ishonib berayotgan imkoniyat, imtiyozlardan maksimal foydalanishimiz kerak, deb o'ylayman. Hozir foydalanmasak, ertaga kech bo'lishi mumkin. Chunki zamon shiddatkor, bozorda esa raqobat kuchli. Birgina misol, biz bazalt mahsuloti ishlab chiqarishni boshlaganimizdan keyin yana 5 ta tadbirkor shunday mahsulot chiqara boshladi. Chunki imkoniyatlar keng, hamma ham ulardan foydalangisi keladi.

# PARVOZ BOSHLANDI

## Bir qanotda yoshlar, boshqasida tadbirkorlar

"Chipta", "Cho'pon",  
"Navro'z"... mahsulotlar nomi shunday

tomondaman, nima sharoit kerak bo'lsa, qilib beramiz", deya alohida ta'kidladi. Bilasizmi, bunday ishonchdan keyin faqat ishlash kerak. Ishlaganda ham halol mehnat qilish, fidoyi bo'lish kerak. Agar davlat qo'llab tursa, tadbirkor ham oson bo'ladi. Bunga o'z faoliyatini misolida amin bo'lyapman. Bolaligidan tadbirkorlikka qiziqqanman va 1995-yildan buyon shu sohadaman. O'shanda firma ochib, chinni buyumlar ishlab chiqarishni boshlaganimiz. Aytсам, nolishga kirmasin, ammo 2016-yilgacha boshimdan ko'p narsalar o'tdi. Faoliyatimda juda katta qiyinchilik, to'siqlar ko'rganim uchun hozirgi sharoitlarni jannat, desam ham bo'ladi.

Ulug'bek aka 2015-yildan keyin kafel mahsulotlari ishlab chiqarish yo'nalishiga qiziqqa boshladi. Ishga kirishay, deb turganda, 2017-yilda tijorat banklaridan biri uni chaqirib, pul, zavod uchun joy taklif qildi. Taklifni bajonidil qabul qilgan tadbirkor 2019-yilda Toshkent shahrida kafel ishlab chiqarish zavodi ochdi. Oradan ko'p o'tmay, Toshkent viloyati Ohangaron tumanida ham shunday zavodni ishga tushirdi. Oxirgi 3-4 yilda kafel zavodlari soni 4 taga yetdi. Ularda 1100 dan ortiq odam ishlaydi. Yiliga 50-60 million dollarlik mahsulot ishlab chiqariladi. Tayyor mahsulotlar Qozog'iston, Tojikiston, Qirg'iziston, Rossiyaga eksport qilinayapti.

— Qaysi sohada bo'lmasin eng zo'ri bo'lish kerak, — deydi Ulug'bek Rasulov. — Ayniqsa, tadbirkorlikda eng muhimi halollik va sifat. Sifat yaxshi bo'lsa, xaridor ko'p bo'ladi. Maqtanish emas, bizning kafellarimiz odam o'zi atay urib sindirmasa, sinmaydi. Eksportga jo'natgan mahsulotlarimizning bari manzilga butun holda yetib boradi. Chunki ishlab chiqarish jarayonida qancha xomashyo talab etilsa, barini solamiz, tejab qolmaymiz. Yaqinda Avstriyaning bir kompaniyasi katta pul evaziga biznesimni sotib olish taklifi bilan chiqdi. Katta pul va'da qildi. Ammo ko'z oldimga qo'lmda ishlaydigan ishchilari keldi, ular qayerga boradi, degan o'y o'tdi. Qolaversa, shu Vatan farzandimiz, biznesim ham o'zimiz qilsak, o'zimizning odamlar ishlasa, barchamizga manfaatli bo'ladi.

Ulug'bek aka singari tadbirkorlarning jahon bozoriga chiqib, milliy brendimizni tanitishida ham davlat yaqindan ko'makchi bo'lyapti. Gap shundaki, biznes sohasiga qadam qo'ygani aksariyat insonning asosiy maqsadlaridan biri xorij bozorlariga chiqish bo'ladi. Boisi, mahsulotni mahalliy bozordan tashqari chet elga sotish bir necha barobar ko'proq daromad keltiradi. Bu mamlakat iqtisodiyoti uchun ham katta foyda. Shuning uchun yurtimizda eksportchi korxonalarini qo'llab-quvvatlash orqali eksport hajmini oshirishga katta e'tibor qaratilayapti.

— Jahon tajribasidan ma'lumki, biznes vakillariga qancha ko'p imkoniyat berilsa, erkin faoliyati uchun sharoit yaratilsa, davlat

ing natijasida qulay biznes muhiti shakllandi. Xususan, eksport yo'nalishi haqida gapiradigan bo'lsam, o'tgan yilning ikkinchi choragida uning ko'lami 2022-yilning mos davriga nisbatan 27 foizga o'sgani kuzatildi. Keskinlashib borayotgan geosiyosiy vaziyatlarga qaramay, mahalliy eksportyorlarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash ko'lami kengaymoqda. To'g'ri, xorijga mahsulot eksport qilish mushkul ish. Ammo avvalgi yillar bilan solishtirganda, hozir bu ancha osonlashgan. Asosiysi, nafaqat yirik, balki kichik korxonalar

ham shunday shiddat bilan davom etyapti. O'tgan 2023-yil ham tadbirkorlikni rivojlantirish, aholi ishbiarmonligini qo'llab-quvvatlash, biznes muhitini yaxshilashga qaratilgan sa'y-harakatlarga boy bo'ldi. Xususan, yangi tahrirda qabul qilingan Konstitutsiyamizga ilk bor qulay investitsiya va ishbiarmonlik muhitini ta'minlash, mulk daxlsizligi, bozor munosabatlarini rivojlantirish va halol raqobat uchun shart-sharoit yaratish, sud mustaqilligi bo'yicha aniq normalar kiritildi.

ishbiarmonlari ishtirok etgani, ayniqsa, manfaatli bo'ldi. Xususan, xorijiy davlatlarda o'tkazilgan 35 ta biznes-forum va B2B uchrashuvlarda 1,5 ming nafardan ortiq, yurtimizda bo'lib o'tgan 45 ta shunday tadbirda minglab tadbirkorlarimiz qatnashib, xorijlik hamkorlar bilan aniq kelishuvlarga erishdi. Palata tomonidan xorijiy tashkilotlar bilan 16 ta o'zaro anglashuv memorandumlari hamda hamkorlik shartnomalari imzolandi. Yana bir quvonarli tomoni, O'zbekiston — Singapur Savdo palatasi, Gamburg shahrida O'zbekiston — Germaniya Iqtisodiy palatasi tashkili etildi. Gruziya, Misr, Qatar davlatlari bilan ishbiarmonlar kengashi tuzildi.

Bugun tadbirkorlik eng katta va ayni paytda milliy iqtisodiyotimizning muhim yo'nalishlaridan biriga aylangan rost. Shu bois, o'tgan yili 18-dekabr kuni davlatimiz rahbari raisligida hududlarda ishlab chiqarishni yanada kengaytirish va xizmatlarni rivojlantirish masalalari muhokamasi yuzasidan o'tkazilgan videosektor yig'ilishida Savdo-sanoat palatasiga qo'shimcha vakolatlar berildi. Hududlarda ishlab chiqarish, sanoat zonalarini va eksportni amalga oshirish endilikda Palata zimmasiga yuklatildi. Eksport agentligi va jamg'armasi, "O'zbekeksperitza" tashkiloti ham uning tizimiga o'tkazildi.

— Mamlakatimiz ishbiarmonlari endilikda har qanday faoliyati davomida, ya'ni ishlab chiqarishdan tortib, eksport jarayonini amalga oshirishda kerak bo'ladigan barcha zaruri yordam bir tizimda, aynan tadbirkorlarning o'zi boshqaradigan tashkilotda ko'rsatildi, — deydi D. Vahobov. — Ushbu yo'nalishlarning bari bevosita tadbirkorlik bilan bog'liq bo'lgani holda, ularni bir nuqtada birlashtirish aniq vazifalar doirasida harakat qilish va natijadorlikni oshirishga imkon beradi. Davlatimiz rahbari ta'bir bilan aytganda, bu tadbirkorlarni eshitish, talab va istaklarini amalga oshirish uchun kerak. Ular uchun yangi imtiyozlar ham berilyapti. Birgina to'qimachilikda joriy yil yana 700 million dollar qo'shimcha qiymat yaratish maqsadida yangi loyihalarga 200 million dollar resurs sifatida ajratiladi. Mahalliy mahsulotlarimizning keng eksport qilinishida biznes vakillariga faol ko'maklashishimiz uchun esa Eksport agentligiga qo'shimcha 50 million dollar ajratildi.

### Har biri qahramon, fidoyi

Umuman, o'tgan yili tadbirkorlar uchun ko'plab qo'shimcha imtiyozlar berildi. Davlatimiz rahbarining 2023-yil 18-avgust kuni bo'lib o'tgan tadbirkorlar bilan ochiq muloqoti esa sohani rivojlantirishga oid bir qator e'zgu tashabbuslarni yanava chiqardi. 2021-yildan boshlab an'anaviy o'tkazib kelinayotgan mazkur ochiq muloqot soha vakillari uchun yilning eng

**O'zbekistonda raqobatbardosh mahsulotlar turi oshib, shunga mos ravishda mamlakatimizning eksport geografiyasi ham kengayib boryapti. Mahsulotlarimiz doimiy bozorlardan tashqari, yangi manzillar, xususan, Yevropa davlatlariga chiqyapti. O'tgan yili O'zbekistonning eksport geografiyasi 160 dan ortiq davlatni tashkil etgani fikrimiz isboti.**

ham buning uddasidan chiqyapti. O'zbekistonda raqobatbardosh mahsulotlar turi oshib, shunga mos ravishda mamlakatimizning eksport geografiyasi ham kengayib boryapti. Mahsulotlarimiz doimiy bozorlardan tashqari, yangi manzillar, xususan, Yevropa davlatlariga chiqyapti. O'tgan yili O'zbekistonning eksport geografiyasi 160 dan ortiq davlatni tashkil etgani fikrimiz isboti.

Tadbirkorlarga eksport yo'nalishida berilayotgan imtiyozlar haqida so'z borganida, juda katta qulayliklarni sanab o'tish mumkin. Jumladan, ularga yo'l haqi, transport xarajatlari subsidiyasi asosida qoplab berish, ma'lum davlatga eksport qilayotganda guvohnoma, sertifikat olishdagi xarajatlarning 70 foizgacha qismini davlat tomonidan to'lash kabi qator imtiyozlar berilyapti. Bir misol, boshqa mamlakatda savdo uyi ochish uchun olingan binoning ham 50 foizi davlat hisobidan to'lanmoqda. Hatto savdo uyi uchun olinadigan omborxonaning ham 50 foizini davlat to'lab beradi. Agzar bu real summalarla tahlil qilinsa, biznes vakili tejab qolayotgan xarajatlar ko'lami yaqqolroq namoyon bo'ladi.

— 2023-yil mamlakatimiz biznes vakillari faoliyatida alohida e'tirof etiladigan yil bo'ldi, desak mubolag'a emas, — deydi O'zbekiston Savdo-sanoat palatasi raisi Davron Vahobov. — Bu davr faoliyati bevosita tadbirkorlik subyektlarini qo'llab-quvvatlash bilan bog'liq bo'lgan bizning tashkilotimiz uchun ham g'oyat qizg'in kechdi. Birgina tadbirkorlarning huquqlarini himoya qilish sohasida amalga oshirilgan ishlar va erishilgan natijalarga e'tibor qaratadigan bo'lsak, o'tgan yil ancha samarali bo'lgani ko'zga tashlanadi. Xususan, palatamiz a'zolari hisoblangan tadbirkorlik subyektlari uchun sudlarga umumiy qiymati 74 trillion so'mdan ortiq 571 ming 595 ta da'vo arizasi kiritildi. Tadbirkorlik subyektlari manfaatini himoya qilgan holda, 398 holatda davlat organlari va ularning mansabdor shaxslari harakati (harakatsizligi)ga nisbatan arizalar kiritilib, shulardan 234 tasi sudlar tomonidan qanoatlantirildi. Bundan tashqari, 6163 holatda tadbirkorlik subyektlarining nizolari mutaxassislarimiz aralashuvi bilan sudgacha muhokama (mediatsiya) jarayonida hal etildi. Palata



Ilm-fan taraqqiyoti



“ DASTAVVAL 72 SICHQONDA TAJRIBA O'TKAZILDI. POMIDORNING SHARBATI SHPRIS YORDAMIDA SICHQON TANASIGA KIRITILDI. TAJRIBADAGI SICHQONLARNI UCH GURUHGA AJRATDIK. BIRINCHI NAZORAT GURUHI O'ZINING KUNDALIK RATSIONI BILAN BOQILDI. IKKINCHI GURUHGA ODDIY POMIDOR, UCHINCHI GURUHGA ESA TOMAVAC BERDIK. ”

O'ZBEK OLIMLARI KORONAVIRUSGA QARSHI YANGI VAKSINA YARATDI

Boshlanishi 1-betda

Xo'sh, mazkur vaktsina yaratish jarayoni qanday kechdi? Tadqiqot uchun pomidor tanlanishining sababi nimada? Mazkur savollar bilan Genomika va bioinformatika markazi direktori, professor Zabardast Bo'riyevga murojaat qildik.



Biz SARS-COV-2 S1 antigen oqsilini barqaror sintezlovchi (Tomovac) pomidor genotipini olishga erishdik, — deydi professor Zabardast Bo'riyev. — Koronavirusning og'ir o'tkir respirator sindromiga qarshi ikki bosqichli himoya bilan ta'minlovchi o'simlik asosida yaratilgan (va uning mevasi yoki boshqa qismlari emlama sifatida iste'mol qilinuvchi) vaktsinalar hozirda qo'llaniladigan va aksariyat hollarda tizimli immun reaksiyasini keltirib chiqaruvchi parenteral vaktsinalarga nisbatan afzalliklarga ega. 2020-yil bahorida mamlakatimizda koronavirus xavfi e'lon qilindi. O'shanda biz bu xavfni vaqtinchalik, bir-ikki oy ichida o'tib ketadi, deb o'ylagandik. Lekin vaqt o'tishi bilan kasallik keng tarqala boshladi. O'sha yili yozda mamlakatimizda koronavirusga chalanganlar soni ortdi. Bu o'z-o'zidan xavfli virusga qarshi vaktsina ishlab chiqish zaruratini yuzaga keltirdi. Ilmiy izlanishlar boshlab yuborildi.

nazorat guruhi o'zining kundalik ratsioni bilan boqildi. Ikkinchi guruhga oddiy pomidor, uchinchi guruhga esa Tomovac berdik.

Ikki haftadan keyin ularning qonini tahlil qilganimizda tanasiga Tomovac kiritilgan sichqonlarda antitanachalar hosil bo'lgani ma'lum bo'ldi. Bu samarali natija edi. Tadqiqotni bir yil davomida uch marta o'tkazdik va ijobiy natijaga erishdik.

Turli mamlakatlarda koronavirusga qarshi inyeksion vaktsinalar ishlab chiqarildi. Bu, albatta, katta laboratoriyalar va katta mablag'ni talab etadi. Pomidor vaktsinasini esa oddiy laboratoriyalarda bemalol yetishtirish mumkin. Bu kamxarj, ammo samarali vaktsinalar toifasiga kiradi.

Tomovac (pomidor vaktsinasini) sichqonlarda kasallikka qarshi immunitetni sezilarli

Iste'mol qilinadigan vaktsina qo'llanilganda immunoglobulin A (IgA) miqdori oshib bordi. Ma'lum vaqt o'tgandan keyin immunoglobulin G (IgG) oshganini ko'rdik. Bu virusga qarshi antitanachalar hosil bo'lganini bildiradi. Shunday so'ng 2021-yilning oxirlarida barcha natijalarni JSSTga taqdim qildik. 2022-yil avvalida "pomidor vaktsina"miz JSSTdan ro'yxatdan o'tdi.

Bu vaktsina odamlarda ham sinovdan o'tkazildimi?

Ha, albatta. Sinovda qatnashish istagini bildirgan ko'ngillilarni tanlab oldik. Avvaliga ularni virusga qarshi antitanachalar miqdorini o'lchab oldik. Shundan so'ng 20 kishida tadqiqot o'tkazildi. Ularning o'n nafariga oddiy pomidor, 10 nafariga Tomovac berdik. Uch kun nahorga 50 grammidan — jami 150 gramm pomidor iste'mol qilgan ko'ngilli testdan o'tkazilganda vaktsina pomidor iste'mol qilgan ishtirokchida immunoglobulin G (IgG) ko'tarila boshlaganiga guvoh bo'ldik. Ikki haftadan so'ng o'tkazilgan test antitanachalar yana ko'tarilganini ko'rsatdi.

Ayni paytda vaktsinani kapsula shaklida ishlab chiqish borasida ham ish olib boryapmiz. Buning uchun biz pomidorni sovuq haroratda quritib, maydalaymiz, so'ng kapsulaga joylashtiramiz. Tayyor mahsulot erta nahorda bitta kapsuladan ichishga tavsiya etiladi. Uch kun iste'mol qilgan odam koronavirusga qarshi emlangan bo'ladi. Aytish kerakki, emlash ham ikki bosqichda amalga oshiriladi. Ma'lum vaqt o'tganidan keyin yana uch kun kapsula buyuriladi.

Pomidor vaktsina yaratish ustida ish boshlagan paytimizda xorijning nufuzli nashrlari tadqiqotga qiziqish bildirgan edi. Rossiya, Turkiya, Fransiya, Misrdan kelgan jurnalistlar tomonidan OAVda batafsil yoritildi. Ko'plab qiziqarli munozaralar olib borildi. Ba'zi izohlarda pomidor qizil rangli bo'lgani uchun allergiyasi bor insonlar qabul qila olmasligi, bu noqulaylik tug'dirishi haqida yozildi.

Biz uchun har bir fikr muhim edi. Bu vaktsinani boshqa o'simlikka ham sinab ko'rish haqida o'yladik. Salat bargi har jihatdan qulay. Hozir bu vaktsinani salat bargida yaratish borasida ham ish olib boryapmiz.

O'tgan yili JSST tomonidan koronavirus chekigani haqida ma'lumot berilgandi. Endi bu vaktsinaga zarurat bo'ladimi?

Pandemiya tugatilgani bilan virus saqlanib qolmoqda. Davlatlar xuddi boshqa yuqumli kasalliklar singari u bilan muntazam va tizimli kurashib boryapti. O'z navbatida, dunyo olimlari infeksiya va uning yangi mutatsiyalariga qarshi samarali dori vositalarini yaratish ustida izlanishlarni to'xtatgani yo'q. Shuningdek, olimlarimiz boshqa kasalliklarga qarshi ham vaktsina ishlab chiqarishni rejalashtirmoqda. Masalan, tuberkulyoz, salmonelloz, difteriya, qizamiq kasalligiga qarshi samarali emlanmalar ishlab chiqish kun tartibidan o'rin olgan. Bu platforma ayni shu maqsadga ham xizmat qiladi. Qolaversa, koronavirusning yangi shtammlari ham yuzaga kelish ehtimoli yo'q emas.

Biz Tomavacni dori vositasi emas, biologik faol qo'shimcha sifatida ishlab chiqarishni ko'zda tutaymiz.

"Yangi O'zbekiston" muxbiri Risolat MADIYEVA suhbatlashdi.



hamkorlikda virus RNKlarini olib, uni genoma axborotini o'rganishga harakat qildik. Hukumat topshirig'iga ko'ra, o'simlik asosida vaktsina yaratishga kirishdik. Buning uchun termik ishlov berilishi shart bo'lmagan pomidor tanlandi.

Tadqiqot uchun nega aynan pomidor tanlandi?

Mahsulotlar yuqori haroratda pishirilganda antitanachalar hosil qiluvchi oqsil parchalanib ketadi. Pomidorga termik ishlov bermasdan iste'mol qilish mumkin. Gen muhandisligi yordamida koronavirusning bizga kerakli oqsilini hosil qiluvchi kichkina genini o'simlik hujayrasiga kiritdik. Tomovac iste'mol qilingach, inson organizmida koronavirusga qarshi antitanachalar ishlab chiqarilishi boshlanadi.

Dastavval 72 sichqonda tajriba o'tkazildi. Pomidorning sharbati shpris yordamida sichqon tanasiga kiritildi. Tajribadagi sichqonlarni uch guruhga ajratdik. Birinchi

Xorijdagi vatandosh

Dilsora MIRZAAHMEDOVA: "ONA TILIMIZ VA MILLIY MADANIYATIMIZNI DUNYOGA KO'Z-KO'Z QILISHDAN G'URURLANAMAN"

Chet elda yashab, ishlab, yaxshi loyihalar, muhim shartnomalar, qo'yingki, ona Vatani, yurtdoshlari manfaatiga xizmat qilishi mumkin neki yangilik bor — ilinadigan vatandoshlarimiz ko'p. Ular xorijda Vatani bilan birga yashamoqda. Bir necha yildan buyon Xitoyda o'zbek tili va madaniyati nufuzini dunyoga yoyayotgan yosh olim Dilsora Mirzaahmedova ana shunday vatandoshlarimiz safida.



Dilsora 1987-yili Namangan viloyatining Pop tumanida tug'ilgan. O'zbekiston davlat jahon tillari universitetining xalqaro jurnalistika fakultetida tahsil olgan. Ayni paytda Xitoy Markaziy millatlar universiteti dotsenti. U talabalarga tilshunoslik fanlari va Xitoy madaniyatidan ta'lim beradi. Bir necha darsliklar, ilmiy qo'llanma va monografiyalarni muallifi.

Xalqlar o'rtasidagi uzilmas rishtalar, avvalo, til va madaniyat orqali bog'lanadi. Xitoy O'zbekiston uchun eng yirik eksport bozori. Investitsiyalar, zamonaviy texnologiyalar, madaniy-gumanitar aloqalarning yangi bosqichi yangi avlod kadrlariga ham ehtiyoj tug'dirishi tabiiy. O'zbekchani ham, xitoychani ham qoyil-latadigan biznes islohotchilar, malakali menejerlar bizga hozir juda-juda kerak. Bu borada esa aynan Dilsora kabi tilshunos va tarjimonlar xizmati muhim.

Bolalikdagi e'tiroflar bugungi kasbinga rag'bat bo'lgan

Ma'lumki, bolaning kelajagida oilaviy muhit katta ahamiyatga ega. Shu ma'noda, biz ulg'aygan muhit, oila, maktab — barcha-barchasi bizning shaxs sifatida shakllanishimizga, o'z ustimizda ishlagan ruh bergan, desam adashmayman. Tog' bag'ridagi uncha katta bo'lmagan Chorkesar shaharchasi aholisi turli millat vakillaridan iborat edi. Har xil til va madaniyat ta'sirida muloqotga tez kirishuvchan bo'lib ulg'aydik. Bog'chada ta'lim rus tilida olib boriladigan guruhda tarbiyalandim. Men tengi qo'ni-qo'shni bolalar, qarindoshlar hali-hanuz tarbiyachi opamizning tarjimoni bo'lganimni kulib eslaydi. Ehtimol, bog'chadagi ishtiroqim tufayli bugun pedagog va tarjimon bo'lib yetishgandirman, kim bilsin!

Ota-onam o'qimishli, ayniqsa, dadam bizning tarbiyamiz bilan birga, ta'lim olishimizga jiddiy e'tibor qaratgan. Esimni tanibmanki, dadam hamisha biror kitob mutolaasi bilan band bo'lar, iqtiboslar keltirar, ora-sira ularning ta'sirli voqealari hikoya qilib berardi. Biz kitobga mehr qo'yib o'sdik. Meni bugungacha quvontiradigan voqea, yodlab, ilk "maosh" keltirgan she'rim Alisher Navoiyning "G'urbatda g'arib..." deb boshlanuvchi ruboiysi bo'lgan. Uyimizga mehmonlar kelsa, men, albatta, bu ruboiyni o'qib berar, evaziga ular meni rag'batlantirardi.

Maktabda yaxshi o'qidim. Universitet tahsilini xalqaro jurnalistika fakultetida oldim. Hayotimdagi eng katta yutuqlarimdan biri mana shunday ulgur dargohda Boybo'ta Do'stoprayev, Saydi Ulmurov, Mahmud Sa'diy, Akbar Nurmatov, Halim Sayyid, Nazira Toshpo'latova kabi yetuk ustozlar qo'lida tahsil ko'rganim bo'ldi. Bundan tashqari, xitoy tili ustozim Tyu Txi Kim Xung xorijiy tilning jozibasini ko'rsata oldi.

2-kursni xalqaro talabalar almashinuvi dasturi doirasida Xitoyning Chanchun shahrida o'qidim. O'zbekistonga qaytgach, universitetda o'qish bilan birga, Toshkentdagi Konfutsiy

O'zbekiston — Xitoy institutida xitoy tilidan o'quvchilarga dars bera boshladim. Bu institut kurslari qo'shimcha ta'lim turi hisoblanadi. Qahramon Imomnazarov, Sevara Hakimova, Vang Fan, Shi Kun kabi o'qituvchilar menga qanday dars o'tishni, pedagogika sirlarini o'rgatgan. O'z ustimda ishlashni, yetuk mutaxassis bo'lish uchun yanada ko'proq o'qish kerakligini ham ayni shu ta'lim maskanida o'rganganman. Eng asosiysi, ta'limni davom ettirishim, magistratura va doktorantura inson uchun juda muhimligini anglab, ilm yo'lidan ketaman, deb qat'iy maqsad qilganman.

Bundan 10-15 yil ilgari o'qish birmuncha qiyin, tahsil jarayoni uzoqroq edi. Masalan, biz o'zimizga kerakli bir kitobni topish uchun Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston milliy kutubxonasiga borardik. U paytlar kitob do'konlari bugungidek ko'p emas, kitob va manbalar topishga qiyinlardik. Boz ustiga, mavjud kutubxonada do'konlarda xitoy tiliga oid kitoblar deyarli yo'q edi. Elektron lug'atlar haqida ku gapirmay qo'ya qolay, biz internet tarmoqlarida so'zlarni "kalit" yordamida qidirib topib, iyerogliflar ma'nosini bilib olardik.

Hozir aksincha, yurtimizda kitobxonlikka e'tibor kuchaygan, kutubxonada kitob do'konlari soni ortgan. Istalgan kitobni topib o'qish, bundan tashqari, internet saytlari orqali istalgan kitobning elektron formatini yuklab olish yoki buyurtma qilish mumkin. Hatto telefonlar uchun mobil elektron lug'atlarining bir necha yuzlab turi mavjud.

Bugungi yoshlarda axborot olish manbasini cheksiz. Quvonarlisi, ilgama chanoq yoshlar safi yildan-yilga kengaymoqda. Ular o'qishni, bilim olishni istaydi. Bu ko'p qatori meni ham juda quvontiradi.

Xitoylik talabam "Alpomish" dostoni bo'yicha ilmiy tadqiqot olib boryapti

PhD ilmiy darajasini olish uchun ilmiy ishmini xitoy tilida yoqlaganman. Shundan so'ng Xitoy oliy ta'lim muassasalaridan ko'plab takliflar tushgan. Men esa Xitoy markaziy millatlar universiteti bilan shartnoma tuzdim. OTM Pekin shahrida joylashgan bo'lib, bu yerda Xitoydagi 56 millat vakillari ta'lim oladi. Nafaqat xanzular, balki uyg'urlar, qozoqlar, mo'g'ullar, tibetliklar... Guruhimdagi talabalar ham turli millat vakillari. Bunday auditoriya bilan ishlash menga hamisha zavqli bo'lgan.

Xitoyliklar bugun o'zbek tilini, O'zbekiston madaniyatini o'rganyapti. Ayni paytda O'zbekiston madaniyatini haqida kitob yozyapmiz. Bundan tashqari, audio kitoblar yaratyapmiz. Bu kitoblarning o'zbek tilidagi variantini o'qib berganman. Talabalarim til o'rganarkan, ovozimdan

tanib qolib, bu qo'llanma ularga yordam berayotganini aytisa, xursand bo'laman.

2017-yil o'qishga kirgan talabalarga o'zbek adabiyotidan dars berdim. O'sha payt Jang Jingjing degan talabam fanga qiziqqan va mavzularni yaxshi o'rgangan edi. Magistraturani bitirib, bugun ilmiy faoliyat bilan mashg'ul. Bakalavr bosqichida "Alpomish" dostoni o'tiladi. Talabam dostonga qiziqqan, kelajakda bu bo'yicha ilmiy tadqiqot qilishni maqsad qilgan. Bugun Pekin universitetida davlat granti asosida "Alpomish" bo'yicha ilmiy tadqiqot o'tkazaypti. Bu meni juda g'ururlantiradi. Yana bir yutuq'im, men nafaqat o'zbek tilshunosligidan, balki boshqa tilshunoslik fanlaridan ham talabalarga dars beraman. Bundan tashqari, mahalliy talabalarga Xitoy madaniyatidan o'qish degan fandan ham dars bera olyapman. Boshqa millat vakili bo'la turib, xitoy madaniyatidan o'sha millat vakillariga dars berish oson emas. Shunga qaramay, menga shu vazifani ham ishonib topshirishgan.

Dars jarayonining asosiy qahramoni — o'qituvchi

O'qituvchi sifatiga ham, natijaga ham mas'uldir. Bir o'qituvchi sifatida mamlakatimizdagi islohot va yangiliklarni ko'rib xursand bo'laman. Milliy ta'lim tizimiga xorijiy tajribalar singdirilyapti. Chet eldan o'qituvchilar olib kelinib, yosh avlodning to'laqonli ta'lim olishiga sharoit va imkoniyat yaratilyapti. Bugun o'zbekistonlik o'qituvchilar dunyoning yetakchi davlatlarida malaka oshirish imkoniyatiga ega. Masalan, o'zbekistonlik pedagoglarning Buyuk Britaniya maktablariga sayohati, xususan, orttingan tajribasi, albatta, milliy ta'lim tizimimizning taraqqiyotiga xizmat qilishi shubhasiz.

O'qituvchilar ilgirigidek qo'shimcha ishlariga, majburiy mehnatiga jalb etilmayotgani kishini quvontiradi. Dars jarayonining asosiy qahramoni — o'qituvchi. Unga alohida e'tibor berish kerak. Ta'kidlashni istardimki, xalqimizning ta'lim jarayoniga yondashuvini o'rganish zarur. Ota-onalar, avvalo, farzandi o'qimishli bo'lishini istashi, bunga yo'l berishi kerak. Davlatimiz berayotgan imtiyozlarni, imkoniyatlarni tushunishi, qadrlashi maqsadga muvofiq bo'ladi, deb o'ylayman.

Davlatimiz hamisha bizga e'tiborli

Meni bir jihat quvontiradi, ruhlantiradi. Prezidentimiz qaysi davlatga tashrif buyurmagan, u yerda yashayotgan o'zbekistonliklar hayoti bilan qiziqadi. Ularning nimalar bilan bandligi, erishayotgan yutuqlari, muammolariga quloq tutadi. Mamlakatimiz taraqqiyoti, xalqimiz farovonligi uchun takliflar so'raladi. "Vatandoshlar" jamoat fondining tashkil etilishi, ayniqsa, Konstitutsiyamizning yangi tahririda xorijda yashayotgan vatandoshlarga davlat g'amxo'rlik qilishi belgilangan yurtdoshlarimiz qalбини g'ururga to'ldiradi.

So'nggi yillarda O'zbekiston — Xitoy munosabatlari mustahkamlanib, har tomonlama kengayib bormoqda. Ayniqsa, ta'lim va ilmiy sohadagi hamkorliklarni meni ilmiy tadqiqotchi va pedagog sifatida g'oyat quvontiradi. Juda ko'plab o'zbekistonlik talabalar Xitoyga o'qish uchun keladi. Mening olti nafar talabam bugun O'zbekiston OTMlarida tahsilni davom ettirmoqda. Bular katta qadam, deb o'ylayman. Demak, bu hamkorlik kelajakda o'z samarasini beradi va ilm-fan sohasidagi aloqalar mamlakatlar rivojiga hissa bo'lib qo'shiladi.

"Yangi O'zbekiston" muxbiri Boshorat YUNUSOVA yozib oldi.







DOLZARB MAVZU

HAR NE'MATNING

o'lchovi bor

Yurtning bir ijodkor qizi sifatida yil boshida guldandapirsam, nurdan yozsam bo'lardi. Yo'q, men SUV haqida so'zlagim keldi. Mendan avval ham ko'p allomalar, olim va mutaxassislar, ustoz adiblar bu mavzuda jon kuydirib gapirgan, yozgan. Elning tili uchiga kelib turgan zarur gapni qancha ko'p odam aytib, yozsa, foydaga ishlaydi. Shuning uchun ko'nglimdagilarni qog'ozga tushirishni istadim. Davlatimiz rahbarining 4-yanvar kuni suvdan samarali foydalanish borasida o'tkazgan yig'ilishida muhokama qilingan masalalar ham shunga undadi.



Munavvara USMONOVA, O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan madaniyat xodimi

El orasida suv bilan bog'liq ajoyib hikmatlar, hech bir millatda uchramaydigan qadim qadriyatlar bor. Yoshi bir joyga borib qolgan keksalar ortga boqqanda "Umr o'qar suvdek o'tdi, ketdi", deya yozg'irib qo'yishadi. Omasdi, mansabi qo'ldan ketib, g'amboda o'tirgan insonni: "Oqqan ariq oqmay qolmas", deya yaxshi kunlar kelishiga umidlantiradilar. El tanigan biror mashhur insonga yaqinligini bildirish maqsadida "Bir ariqdan suv ichganmiz", deya g'ururlanish odatimiz bor. Kullas, suv — hayot manbai ekani haqidagi ibratli gaplarni xalqimiz orasida yashab kelayotgan qadriyatlar qatorida sanasak ham noo'rin bo'lmaydi. Chunki ajdodlarimiz faqat aytib qolmay, bu so'zlariga amal ham qilgan. Bir uy mehmon qo'lini yuvishi uchun bir chovgum iliq suv yetarli bo'lgan. Qo'l yuvsa, qovjirab turgan gul ko'chati ustiga yuvgan...

Bola edim, onamga ergashib dalaga borardim. Onam belanchagi nobop bo'lib qolganidan, uxlab qolgan go'dagi uchun yerga joy hozirlamoqchi bo'lib turgan ayolning

ularga ilindim. Ular chanoq, tebranib turgan g'o'zabolalarga ilindi, — dedi jilmayib.

Suv haqida o'ylasam, o'sha manzara bot-bot ko'z o'ngimda jonlanadi. Chunki bugun suv masalasi xonadonlarimizdagi oddiy gap-so'zlardan davlat siyosati darajasigacha ko'tarildi.

Davlatimiz rahbari Mustaqillik bayramiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi nutqida ekologiya masalasiga ham to'xtaldi.

"Bugun bizning oldimizda turgan yana bir muhim masala — ekologik muammolar va suv tanqisligidir. Tarozining bir pallasida o'sib borayotgan qurilishlar, ishlab chiqarish, qishloq xo'jaligi turgan bo'lsa, ikkinchi pallasida har birimiz uchun eng zarur bo'lgan suvni tejash, atrof-muhit ifloslanishining oldini olish va yer resurslaridan oqilona foydalanish masalasi turibdi.

Bizning vazifamiz — har ikki yo'nalishda ham muvozanatni saqlashdan iborat. Hech qachon unutmashimiz lozimki, tabiiy resurslar — bu kelajak avlodlarimizga ham tegishli bo'lgan boylikdir. Shu bois, ulardan nafaqat bugungi, balki ertangi kunimizni ham o'ylab, oqilona foydalanishimiz zarur. Bu borada suvni, energiya va boshqa tabiiy resurslarni



iste'mol qilgan odamnikiga qaraganda sog'lom bo'larkan.

Suv tana uchun kisloroddan keyingi eng zarur modda hisoblanadi. Shukr, zilol suvlar oqib turgan, har mevasi suvga qonib, quyosh taftidan yonib, shira boylaydigan ne'matlar bilan siyilgan yurtga yashaymiz.

Dunyoda bir milliarddan ortiq kishi toza suv ichish imkoniyatiga ega emas. Toza suv ichish katta muammoga aylangan mintaqalar ham bor.

Har bir qit'aning ifloslanishlar sabab umuman foydalanish uchun yaroqsiz bo'lib qolgan o'z "o'lik" daryolari bor. Aslida, daryolar o'z-o'zidan "o'liklar" safiga kirib qolmaydi. Yer yuziga hayot baxsh etayotgan daryolarni o'ldirayotgan ham o'zimiz. Chiqindilar bilan to'ldirayotganlar ham tiriklikning eng oliy

botirsangiz, hammaning halqumini bulg'aysiz", degandi.

Bu shunchaki gap emas. Tabiatning beba-ho ne'matiga hurmat, qadr bor bo'lganlarda. Kelin bo'lib tushgan xonadonimda ham katta hovuz va shunday an'analar bor ekan. Besh-olti yil yashagach, bir-ikki mahalla nariga yangi imorat tiklab ko'chib o'tdik. Ana shunda suv qiyinchiliklari boshlandi. Axborotlar kuchaygan davrga kelib, bir kishiga yil davomida 60 tonna suv kerak bo'ladi, degan faktlar ko'zimizga tushgach, o'sha kunlar yodi yurakni timdalay boshlaydi. 1 kilo kartoshka yetishtirish uchun 100 litr, 1 kilo guruh olish uchun — 4000 litr suv sarflanarmish.

Biz o'sha davrlarda Yaratgandan yomg'ir so'zlaridik. Ora-sira ko'chadagi ariqlarga suv kelib qolsa, mahallada bayram bo'lardi. Umr yo'lodoshim uddaburon odam bo'lgani uchun tomdagi qorlar erisa yoki yomg'ir yoqqanida tarovdan tushadigan suv uchun maxsus (betondan) suv saqlagich qurib bergan, qishu bahor o'sha beton hovuzcham-lasida suv to'planardi. Qurg'oqchilik boshlanishi bilan "bir chelak bering", deb eshik qoqqanlar soni ortgandan-ortardi.

Har ne'mat isrof qilinsa, albatta, uvo-li ham, zavoli ham bo'larkan. Bolalik paytimizda ko'chamizdagi ariqda zilol suv oqib turardi. Bir kuni anhor bo'yida yuz-qo'limni yuvib o'tirsam, mahallamizda yashaydigan nuroniy amaki: "Qizim, shunday oqil insonlarning bolasi bo'laturib beaqling ishini qilyapsanmi, axir ariqdagi suvdan odamlar ichadi-ku", deb koyigan edi. Men indamay uyga kirib ketdim. Xayolimda: "O'zimizning ko'cha, o'zimizning ariqdan oqqan suvga nega yo'jayinlik qiladi?", deb g'ashim kelgan. Onam ham doim: "Ariqdagi suvga supurma, choynak-piyolani bir chovgum suv olib kirib uyda yuv, supurgini oqayotgan suvda chayma", deb ko'p nasihat qilardi. Baribir o'z bilganimdan qolmasdim. Ro'zg'or boshimga tushib, suv tanqisligi nima ekanini bilgan kunlarda o'g'lim: "Ayajon, ko'cha boshidagi Ma'ruf amaki bor-ku, o'shaning o'tdakilari ariqning ichida suzib yuribdi, biz shu suvni ichamizmi?", deb qoldi. Ko'nglimga g'ashlik

"BUGUN BIZNING OLDIMIZDA TURGAN YANA BIR MUHIM MASALA — EKOLOGIK MUAMMOLAR VA SUV TANQISLIGIDIR. TAROZINING BIR PALLASIDA O'SIB BORAYOTGAN QURILISHLAR, ISHLAB CHIQRISH, QISHLOQ XO'JALIGI TURGAN BO'LSA, IKKINCHI PALLASIDA HAR BIRIMIZ UCHUN ENG ZARUR BO'LGAN SUVNI TEJASH, ATROF-MUHIT IFLOSLANISHINING OLDINI OLISH VA YER RESURSLARIDAN OQILONA FOYDALANISH MASALASI TURIBDI."

qo'ldan bolasini olib, ukamning belanchagiga yotqizdi. "Ukam qayerda yotadi?" deya xavotirga tushdim. "Belanchak keng, ikkalasiyam bemalol sig'adi. Dala joyda bolani yerga yotqizib bo'lmaydi-da", dedi onam ochiq chehra bilan. Tushga yaqin bog'cha xola: "Qizim, suv tashiydigan bola bugun ishga kelmasdi, choynakka suv quyib bersam, onang ishlayotgan paykalga olib borasanmi?", dedi yelkama qoqib. Biri yupansa, biri yig'layotgan bolalarni ovutishdan to'yib turganim uchun jon deb rozi bo'ldim. Kun is-sig'ida chopiq qilib chanoq, holi qurib qolgan ayollar meni ko'rib, sunyub bir joyga jam bo'ldi. Piyolaga suv quyib, avvaliga onamga uzatdim. Bir piyola suv qo'ldan-qo'lga o'tib, oxirida o'tirgan, sochlariqa oq oralagan ayol-gacha yetib bordi. Shukrona keltirib, tash-naligini qondirgan ayol, piyola tagida qolgan bir ho'plam suvni g'o'za ko'chati tagiga quydi. Boshqa ayollarda ham shu hol takrorlandi. Tuproq kechib, qiyalib ko'tarib kelgan suvni hayf qilib g'o'za tagiga quyishlari g'ashimni keltirdi, shekilli, onamga: "Bu xotinlar suvni nega oxirigacha ichmay, g'o'za tagiga quyish-di?", dedim.

— Qizim, g'o'zaniyam joni bor. Yerga chigit qadalganidan buyon uni boladek avay-lab begona o'tdan, yomg'iru do'ldan saqlab parvarish qilamiz. Men o'zim ichgan suvdan



tejaydigan iqtisodiyotga tezroq o'tish muhim ahamiyatga ega...", deya ta'kidladi.

Darhaqiqat, suvning o'rni hech narsa bosa olmaydi. Mutaxassislar ma'lumotiga ko'ra, suv sayyoramiz hududining 70 foizini qoplaydi. Ammo uning atigi 2-3 foizigina chuchuk suvdan iborat, ya'ni ichish uchun yaroqli. Yurak sog'lom bo'lishi uchun yetar-li miqdorda suv bilan ta'minlanib turishi ke-rak. Kuzatishlarga ko'ra, kuniga o'rtacha bir litr suv ichgan odamning yuragi suvni kam

mavjudoti hisoblanadigan odamlar. Kuzatib yuraman, ba'zan iztirobga tushaman. Saraton issig'ida suv bo'ylariga rohat izlab borganlar o'zlaridan shunday iz qoldiradiki, bu xatolar daryo suvi yuvsa ketmaydi, hoy insonlar, deb jar soling keladi.

Andijonning Marhamat tumanidagi Marhamat qishlog'ida tug'ilganman. Ota hovli-mizda katta hovuz bo'lardi. Hovuz chetida bir tup ulkan sadaqayrag'och gurkirab, atrofiga soya, salqinlik berardi. Enam rahmatli supa-

cho'kdi. O'sha odamning yoniga borib: "Nega bunday qilaysiz? Mahallada hamma ariqdagi suvdan foydalansa, ko'cha boshida yashab turib suvni bulg'asangiz yaxshi emas-ku", dedim. U kishi esa: "Suv yetti yumalasa halol bo'ladi. Eshigim oldidan oqqan suvga o'zim egaman, ishing bo'lmasin", degan. G'azabdan vujudim titrab qaytar ekanman, qaytar dunyo, degan naql yodimga tushdi.

Yoz oylarida bir mahallaga bordim. Ko'p-chilik gilam yuvur, ko'cha o'rtasiga tashlangan gilam ustida ichimlik suvi oqib yotardi. O'sha ko'chadagi mahalla kayvonisiga suv isrof bo'layotgani, bu borada mahalla ahli bilan kelishib olish zarurligini aytdim. Qaytishimda bir ayol ro'paramga chiqdi. "Sizning ishingiz bo'lmasin, suv ishlatish uchun yaratilgan, pulini to'lab halolab ishlatyapmiz, aralash-mang", dedi. Ehtimol, bunday fikrda yashayotgan faqat shu ayolmasdir. Agar shunday bo'lsa, ular e'tiboriga mana bu ma'lumotlarni havola qilgan bo'lardim:

Inson ochlikka bir-ikki hafta ham chidashi mumkin, ammo tashnalikka uch kungina bardosh bera oladi, xolos. Dunyoda taxminan 500 million kishi suv taqchilligi keskinlash-gan mintaqalarda yashaydi. Dunyo resurslari instituti taxminlariga ko'ra, 2040-yilga kelib, jahonning 33 davlati suvning o'ta darajada

"Ko'klam" darsi bo'larkan. O'qituvchi dala kengliklariga bolalarni olib borib, ularning qo'lga tesha, kurakchalar tutqazdi. Yer qan-day chopilishi, qanday urug' qadalishi, hatto loy ichidagi chuvalchanoqlar haqida batafsil sahoq berdi. Bolajonlarning sumkachasida har xil mevalarning danaklari, urug'lari bor edi. Loyli tuproqdan sharchalar yasab, uning ichiga meva danaklarini joylagan bolalar ularni o'zlariga istagan tomonga o'ta boshladi. O'qituvchi "Keyingi darsda uning nihollarni parvarish qila boshlaymiz", dedi.

To'g'ri, bizda, ayniqsa, shaharlarda unday dala-tuz, kengliklar ko'p emasdir, ammo bog'cha va maktablarda "Tabiat va biz" darslari mumtozam o'qitilsa, bolalarimiz yuragida tabiatga mehr uyg'onarmidi... Hech bo'lmagan-da kattalar barpo etayotgan "yashil maydon"ni toptab ketmaslik kerakligini o'rganarmidi... Gullagan mevaning shoxini sindirib, chak-kasiga taqishdan andisha qilarmidi... Ko'chalar-da, jo'mragi nosoz kranlardan oqib yotgan suvni ko'rsa, joni achiydigan bo'larmidi... Ar-zimagan pulni "apparat og'ziga" qistirib, yuz litr suv bilan mashinasini yuvayotganlarga, muzlab qolmasin uchun vodoprovod jo'm-ragidan multiratib suv oqizib qo'yayotganlar-ga suvning qadr-qimmatini nechog'liq baland-ligini ko'rsatib qo'yadigan hujjatli filmlar yaratilsa, qanday yaxshi bo'lardi.

Axir o'zbek degan millatning umri zahmatlar orasida o'tdi-ku. Hazrati Navoiy Farhod timsolida faqat er yigitning matonatini ko'rsatish uchun suvni tasodifan vosita qilmagani aniq. Bu bilan "Suv keltirgan aziz" naqlining mohiyati va qadri besh-olti asr naridan ekanini uqamiz. Yori barpo etgan qasrga "Hayot bulog'i" dan suv keltirish uchun tog'ni yo'nib ariq qazigani zamirida katta sahoq bor.

O'zbek xalqi tarixida, bosib o'tgan yo'llarida suv uchun kurashlar ko'p bo'lgan. Katta Farg'ona kanali qurilgan paytda 170 ming kishi ter to'kkani, 45 kunda 160 kilometrli ulkan kanal qazilganini faxr bilan tilgan olamiz. Bobom rahmatli o'sha kunlarni hikoya qilganda ko'zlarini yonib, g'ururlanib hikoya qilardi:

— 1939-yilning birinchi avgusti edi. Juda katta bayram bo'lgan. Karmay-surmaylar chalingan, doshqozonlarda oshlar damlangan. Ketmon, belkurakni yelkaga ortib, hammamiz mehnatga bel bog'laganmiz. Kimlardir temir ustunlari bo'lmasa, qirg'og'i beton qilinmasa, katta suv oqsa, nurab ketadi, urib ketadi deb ishni to'xtatmoqchi bo'lgan. Ammo xalq bir mushuga aylanib, yer qazishga tushdi. Xotin-qizlar ham ko'ngilli bo'lib mehnat qildi. Tuproq ortilgan qoplami tortib tepalikka olib chiqish qiyin bo'lganidan ayollar paqirlarga solib tuproq tashirdi. Hech kim tomoshabin bo'lmasdi. Sillasi qurib, kesakka qoqilib, yerga yiqilganlar ham bo'lgan. Shoirlar borib, she'r o'qidi, san'atkorlar qo'shiq aytib, raqs tushib toliqqan vujudlarga halovat berdi. Ketmonlab kanal qazidik, yurt-ga suv keltirishda el bir butun xalqqa aylandi, bolam. Suvga serob bo'ldik...

Ha, azizlar. Suvga serob bo'ldik. Yerga bir hovuch urug' tashlasak, bir qop don olamiz. Lekin bir qarashda behisob ko'ringan har ne'matning o'lchovi borligini hamisha yodimizda tutganimiz yaxshi.

Alloh in'om etgan boylik butun bir millatning mulki, yana ham teranroq aytusak, butun insoniyatning mulki.

Mayli, daryolarimiz, buloq, soylarimiz, sharsharalarimiz quvonchli, yaxshi kunlarimizga yarasin. Lekin o'sha buyuk ne'matlarda farzandlarimiz, ularning zurriyotlarining ham haqqi borligini unutmaylik.

Ha, azizlar. Suvga serob bo'ldik. Yerga bir hovuch urug' tashlasak, bir qop don olamiz. Lekin bir qarashda behisob ko'ringan har ne'matning o'lchovi borligini hamisha yodimizda tutganimiz yaxshi.

"Yangi O'zbekiston" va "Правда Востока" gazetalarini tahririyati DM

MUASSIS: O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi

Bosh muharrir: Salim DONIYOROV

Tahririyatga kelgan qo'lyozmalar taqrib qilinmaydi va muallifga qaytarilmaydi. Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar. Gazeta tahririyat kompyuter markazida sahifalandi. Gazetaning poligrafik jihatdan sifatli chop etilishiga "Kolorpak" MCHJ mas'ul.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2020-yil 13-yanvarda 1047-raqam bilan ro'yxatga olingan. Nashr indeksi — 236. Buyurtma — 13. 8848 nusxada bosildi. Hajmi — 3 taqop. Ofset usulida bosilgan. Qog'oz bichimi A2. Bahosi kelishilgan narxda.

"Kolorpak" MCHJ bosmaxonasida chop etildi. Bosmaxona manzili: O'zbekiston, 100060. Toshkent, Yangi shahar ko'chasi, 1-A uy. Bosmaxona telefoni: (78) 129-29-29

Navbatchi muharrir: Abduruf Qorjovov Musahhih: Sherzod Mahmudov Dizayner: Zafar Ro'ziyev

Manzillimiz: 100060, Toshkent shahri, Shahrisabz ko'chasi, 85-uy